جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

# Jadid

2024-yil 6-sentyabr
№ 37(37)
www.jadid-media.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

## DAHOGA EHTIROM



**Beruniy bir yuz ellikdan ortiq asar yozgan. Ulardan o‘ttizdan ko‘pi bizgacha yetib kelgan. Hali shu kunga dovur olimlar Beruniyning ilm-fandagi xizmatlarini tugal o‘rganib chiqqanlari yo‘q. Beruniyni tugal anglaganlari yo‘q. Hali shu kungacha dunyo ilm ahli tomonidan alloma asarlariga yangi sharhlar yoziladi. Hali shu kunga qadar Beruniy borlig‘idan taralgan ma’rifat yog‘dusidan insoniyat bahra oladi. Buning nomi manfaatli ilm deyiladi...**

*(5-sahifada o‘qing).*

NUQTAYI NAZAR

# “YURTNING KUCHI – BIRLIKDA, QADRI ESA TINCHLIKDADIR!”

**Inson umri ulkan bir kitobga qiyoslansa, to‘g‘risi, mening hayotimni o‘zida jamlagan muhtasham kitobning ushbu kunlarga taalluqli sahifalari benihoya mazmunga to‘ladir. Men mo‘ysafid olimman, ammo yuragimda g‘ayrat-shijoatim jo‘sh uradi. O‘zimni yoshlar qatorida ko‘raman, ular bilan baravar fikrlashga urinaman.**

**Istiqlolimizning o‘ttiz uchinchi yilini keng shodiyonalar bilan nishonladik. 31-avgust kuni shogirdlarim bilan baqamti o‘tganlar ruhiga duo qilish uchun Shahidlar xotirasi maydoniga bordik. Urf-odatimizga ko‘ra, qatag‘onga uchragan bobolarimizni yodlash marosimida osh tarqatildi. Shu anjumanda Prezident bilan uchrashdim. Quchog‘im to‘ldi. Beixtiyor ko‘zlarimga yosh keldi.**





**Oqil SALIMOV,**
**akademik**

To‘g‘risi, jamiyatimizni jadid bobolari izidan borib, ular ruhini shod qilayotgan, ta’lim-tarbiya va barcha ijtimoiy-maishiy jabhalarda jiddiy o‘zgarishlar me’mori bo‘lgan Prezidentimiz borligidan qalbim quvonchga to‘ldi. Biz o‘tganlarni yodga olar ekanmiz, ular yetisholmagan, ular uchun armonga aylangan orzularning ro‘yobga chiqqanini ko‘rganimiz va shu kunlarda yashab turganimiz uchun shukronalar aytamiz. Bu dil so‘zlarim, bu chin gaplarim yuragimning tub-tubidan chiqayotgani uchun go‘yoki yosh boladek yayrab ketaman.

Bayram munosabati bilan Respublika Prezidenti so‘zlagan nutqini diqqat-e’tibor bilan eshitdim. Odatda har yili Mustaqillik bayrami kunlarida bamisoli o‘tgan oylar sarhisobi bo‘ladi. “Aynan mustaqillik tufayli milliy davlatchiligimiz qayta tiklandi. O‘zbekiston yangi tarixiy davrga qadam qo‘ydi. Aynan istiqlol tufayli Jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egalladik”.

*(Davomi 2-sahifada).*

BUGUNNING SHE’RI



## CHIN XAZINA

**Paralimpiya rekordchisi**
**Asila Mirzayorovaga**

Bu yurtning garchi keng jazirasi yo‘q,
Dengizi, ummoni – vahimasi yo‘q.
Uning chin, asil, pok farzandlari bor,
Farzanddan azizroq xazinasi yo‘q.

Asila mingani oltin otini
Maqtayin dedim men zafar totini.
Axir, dil izhorga shoir zotining
She’ridan boshqa bir vasilasi yo‘q.

Garchi u olamda o‘n yildan bu yoq,
Ko‘ripti na shakl, na rang, na bo‘yoq,
Ko‘rar ko‘z yo‘q, ko‘rar ko‘ngil bor biroq,
Ko‘ngildan o‘zga nur – basirasi yo‘q.

U baxtdan ko‘z yoshi to‘ksa bir mayin,
Dil ko‘zim ochildi, chog‘i, bilmayin,
Muhabbat – dunyoning eng eski mayi,
Bebaxtdir, kim undan nasibasi yo‘q.

Seving, nafs otidan ingani seving,
Seving, shu – kibrning singani, seving,
Vatanni Asila singari seving!
Farzandning bundan cho‘ng vazifasi yo‘q.

Har kimning o‘z aytar kalimasi bor,
Tojira, mashhura, jamilasi bor.
O‘zbekning eng asil Asilasi bor!
Boshqaning bunchalik Asilasi yo‘q!

**Mansur JUMAYEV**

# PARALIMPIYACHILARIMIZ TARIX YARATMOQDA




**Parijdagi Olimpiya o‘yinlarida sportchilarimiz erishgan natijalar xalqimiz ko‘ngliga iftixor tuyg‘usini baxsh etib, mamlakatimiz bayrog‘i bir necha bor baland ko‘tarilgan, madhiyamiz xalqaro maydonda yangragan edi. Bu g‘alabalarning shukuhi tark etmay turib, Paralimpiya o‘yinlarida ham sportchilarimiz ketma-ket oltin medallarni qo‘lga kiritib, yurtimiz sharafini himoya qilmoqda.**

*(Davomi 2-sahifada).*

MILLAT FIDOYILARI

# HURRIYAT UCHQUNLARI

**Toshkent shahri. 1938-yil 9-oktyabr.**

**Harbiy kollegiyaning shu kuni ertalab soat 9:20 da bo‘lib o‘tgan sayyor yig‘ilishida o‘limga hukm etilgan 42 nafar mahbus O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi komendanti, davlat xavfsizlik xizmati katta leytenanti Shishkin, birinchi rangdagi bosh harbiy prokuror yordamchisi Shulsin va mayor Apressyan ishtirokida Toshkentdagi hukm ijro etiladigan maxsus joyda otib tashlanadi. Ular orasida bor-yo‘g‘i 29 bahorni ko‘rgan Inog‘om Mo‘minov ham bor edi.**

Bundan oldinroq sobiq Ittifoq Oliy sudi harbiy kollegiyasining 1938-yil 4-oktyabrida qabul qilingan qarori bilan 52 nafar mahbus otuvga hukm etilgan. Mazkur ro‘yxatning 29-raqamida Muhammad Mo‘minov nomi bitilgan. Jazoni shu kuni tundayoq davlat xavfsizligi xizmati katta leytenanti Shishkin ijro etgan. Namangan shahridagi Oktyabrning 25 yilligi ko‘chasida bir oilada tug‘ilib o‘sgan aka-uka – Muhammad va Inog‘om Mo‘minov mudhish “Katta terror” qurboni bo‘lgan. Quyida mustabid sovet davrida Ichki ishlar vazirligi tizimida faoliyat ko‘rsatib, shu rejimning qatag‘oniga duchor bo‘lgan Inog‘om Mo‘minovning fojiali hayotidan ayrim lavhalarni keltiramiz.

Qo‘limizda qamoqqa olingan Inog‘om Mo‘minov haqidagi hujjat turibdi. Unda mahbus 1909-yili Namangan shahri, Oktyabrning 25 yilligi ko‘chasi 31-uyda tavallud topgani yozilgan. Shuningdek, uning eski Buxorodagi Guzarazot ko‘chasi 141-uyda yashashi, kasbi – xizmatchi, ish joyi va lavozimi – NKVD Buxoro sektori 3-bo‘limi boshlig‘i yordamchisi, ijtimoiy kelib chiqishi – hunarmand to‘quvchi ekanligi bitilgan. Ma’lumoti quyi o‘rta, partiyasiz. VLKSM a’zosi, O‘zbekiston SSR fuqarosi. Xotini Zinaida Ivanovna, o‘g‘li Tohir Inog‘omovich 6 oylik chaqaloq, qaynonasi Maria Ivanovna 55 yoshda. Inog‘om Mo‘minov maxsus vakolatli bo‘lim tomonidan 1937-yil 26-sentyabrda qamoqqa olingan.

*(Davomi 7-sahifada).*

TIBBIYOT



# O‘ZBEKISTONDA TRANSPLANTOLOGIYA ISTIQBOLLARI

**Dunyo bo‘yicha birinchi yurak transplantologi deb e’tirof etilgan Kristian Bernard “Hatto ko‘chirib o‘tkazilgan yurak ham sevishga qodir” deganida yuz karra haq edi. Janubiy afrikalik bu benazir shifokor bir insondan boshqa bir insonga jon baxsh etguvchi yuraknigina emas, hayotning davomiylik haqiqatini ham ko‘chirganini ich-ichidan his etgandir, ehtimol...**

**Ichki a’zolar transplantologiyasining tibbiyot sohasiga kirib kelganiga 112 yil to‘lgan bo‘lsa-da, bu sohada hamon yangidan yangi talqinlar ilgari surilmoqda. Ayniqsa, jigar, buyrak ko‘chirib o‘tkazish orqali ming-minglab bemorlar hayotga qaytayotganini hisobga olsak, bu ulkan tadqiqotlar ortida tiriklikka xizmat qilayotgan umumbashariy taraqqiyot yuz berganini anglamoq mumkin.**

Yigirma birinchi asrda mamlakatlar tibbiy sivilizatsiyasini belgilovchi mezonlardan biri transplantologiyadir. Yurtimizda ham tibbiyotga, xususan, mazkur sohaga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. 2017-yilda Vazirlar Mahkamasining “Inson organlari, to‘qimalari va (yoki) hujayralarini transplantatsiya qilish haqida”gi qaroriga asosan jarrohlik yo‘li bilan ichki a’zolarni ko‘chirib o‘tkazishga ruxsat berildi. Ayni paytda O‘zbekistonda uchta transplantatsiya markazi faoliyat olib boryapti. Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi va Samarqand viloyati ko‘p tarmoqli tibbiyot markazining malakali shifokorlari soha rivojiga munosib hissa qo‘shishmoqda.

*(Davomi 3-sahifada).*

# “YURTNING KUCHI – BIRLIKDA, QADRI ESA TINCHLIKDADIR!”

Boshlanishi 1-sahifada.

Bayram ma’ruzasida Prezident aytgan bu gapning o‘z asosi bor. Men ham o‘tgan kunlarga xayolan nazar soldim. Yurtboshimiz qardosh qo‘shnilarimiz bilan hamkorlikda juda ko‘plab anjumanlarda qatnashdi. Respublika rahbariyati ba’zan bu kabi ijtimoiy-siyosiy anjumanlarning tashabbuskori bo‘ldi. To‘g‘risi, bir necha yildan beri, Markaziy Osiyo mamlakatlarining o‘zaro birligi, birdamligi, hamnafasligi, hamkorligi va bu jarayonda mamlakatimiz olib borayotgan oqilona siyosatni jahondagi ma’naviyat-ma’rifat ahli e’tirof etayotir. Bizning diyorga xolis nazar bilan qarayotgan dunyo siyosatdonlari o‘zgarishlarni ham, tashabbuskorligimizni ham tan olayotgani sir emas. Men mo‘ysafid olim sifatida duo qilib: “Yurtimizga ko‘z tegmasin. O‘zbekiston gullab yashnasin!”, deyman. Oqqan daryo o‘zani bo‘ylab oqaveradi. Yangi o‘zanlarni ham bunyod qilaveradi. Bular ham muhim. Shunga monand jahon adabiyotiga o‘zining buyuk asarlari bilan bebaho hissa qo‘shgan alloma adib Chingiz Aytmatovning: **“O‘zbekiston mening qalbim, mening yuragim. Bu mening ruhim va tanam nafas oladigan va dam oladigan joy. Bu ajoyib O‘zbekiston – madaniyat beshigi”,** degan ulug‘vor e’tirofini yoshlar orasida ko‘p takrorlayman. “O‘zbekiston – madaniyat beshigi”. Bu shunchaki oddiy gap emas. Tafakkur chig‘irig‘idan ming marta o‘tgan, pishib, yetilgan va juda o‘ylab aytilgan hikmat. O‘zbekiston tafakkur egalari, tashabbus sohiblarining yurti. Madaniyat, san’at, ilm-fan gullagan o‘lka. Balki erksizlik zamonlarida bir muddat soyada turgandir u. Ammo bugun dunyo ahlining oldida o‘z aql-zakovatimiz bilan hech kimdan kam emasligimizni namoyon qilmoqdamiz. Parij olimpiadasida g‘olib bo‘lgan nabiralarimning ko‘ksini bezab turgan oltin-kumush medallarga nazar solib, boshim osmonga yetdi. Ularning musobaqalardagi kurashlari, bokschilarning ringdagi bahodirona olishuvlarini kuzatib, to‘g‘risi, teleekran qarshisida o‘rnimdan turib ketgan mahallarim ko‘p bo‘ldi. **“Bugungi kunda navqiron farzandlarimiz Yangi O‘zbekiston ravnaqiga munosib hissa qo‘shmoqda”.** Bayram munosabati bilan Prezident shunday haq gapni aytdi. Parijda g‘alabaga erishgan nabiralarimning har birini alohida tilga oldi. Shu mahal men ham ularga tasannolar aytdim. Zotan, sportdagi yutuqlar mustaqil O‘zbekistonimizni dunyoga tanitmoqda. Bu sohada o‘z kuch-qudratini namoyon qilayotgan O‘zbekistonning mard Ulug‘bek-u Bahodirlari, Diyoradek irodasi mustahkam qizlari dunyoning eng yuksak shohsupalarida ko‘ksini kerib turishdi.

Azizlar, ilm-fandagi dunyo bo‘ylab yurishlarimiz ham xuddi shu maromda, shunday yuksak darajada davom etmog‘i lozim. Ayni dam ushbu beqiyos qiyoslarni o‘ylaganimda xayolimga yoshlikda o‘qiganim akademik shoirimiz G‘afur G‘ulomning:

*“Bizda logarifmaning mushkul muammolari,*
*Qo‘ldagi barmoqlarday oddiy qilinganda hal.*
*“Oliy irq” da’vogari, Cherchillning bobolari,*
*Hatto sanay olmasdi o‘n barmoqni mukammal”,*

– degan misralari bot-bot xayolimga kelaveradi. Biz buyuk ajdodlarga munosib vorislar bo‘lishimiz lozim. Tarix haqiqati, chin haqqoniyat shudir. Shunda o‘tgan ulug‘ allomalarning ruhlari-da shod bo‘ladi, albatta.

**“Yurtning kuchi – birlikda, qadri esa – tinchlikdadir!”** Juda donishmandlarga xos topib aytilgan bu hikmatni aslo esdan chiqarmaslik kerak. Buni har bir o‘zbekistonlik chuqur mulohaza bilan o‘ylab ko‘rsin. Tinchlik – bebaho ne’mat. Dunyoning turli mintaqalaridagi xunrezlik va notinchliklarni ko‘rib, eshitib, Prezident aytgan gapning naqadar to‘g‘ri ekanini anglash qiyin emas. Anglab, jim o‘tirishning o‘zigina kifoya qilmaydi. Azizlarim, birlik uchun, tinchlik uchun har birimiz qo‘limizdan kelgancha harakat qilmog‘imiz lozim. Yaqin tarixda bo‘lgan notinch kunlarni, sal nariga borilsa, urush ofatlarini biz o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rdik. Tinchlik ortidan el obodligi, to‘qchilik va farovonlik keladi.

Prezident ota-onalarga qarata aytgan juda muhim bir fikrga alohida e’tibor berib o‘tirdim: *“Men hurmatli ota-onalarga qarata aytmoqchiman: qizlaringizni o‘qiting, orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarishlarida ularga ko‘makchi bo‘ling! Ulug‘larimiz aytganlaridek, o‘g‘il bolani o‘qitsak, bir kishi savodli bo‘ladi. Qiz bolani o‘qitsak, butun oila, butun jamiyat bilimli bo‘ladi!”* Asrlar tajribasidan o‘tib kelayotgan, dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar o‘z turmush tarziga tatbiq etgan, o‘z vaqtida bizning ulug‘larimiz aytgan beqiyos bir haqiqatni Prezident yodimizga soldi.

Yangi O‘zbekistonni barpo etishning beshta ustuvor yo‘nalishiga e’tiborini qaratgan Prezident birinchi navbatda “sifatli ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish”ni aytib, yana “Muammolarning yechimi, savollarimizning javobi faqat va faqat ta’limda. Hamma eshiklarni ochadigan kalit ham – faqat va faqat ta’lim va tarbiyadir”, degan ta’kididan keyin yetmish yilga yaqin shu sohada faoliyat olib borayotganim uchun ich-ichimdan quvondim. Prezidentning bu durdona fikri jadid allomalarimizning fikriy dasturlariga, jadidona qarashlariga uyg‘un. Biz Yangi O‘zbekistonni bunyod qilayotgan ekanmiz, bu muhtasham asriy imoratning barcha muammolarini ta’lim va tarbiya vositasida hal qilamiz, albatta. Inson tanasida shunday bir a’zo bor u tuzalsa, hamma a’zolar sog‘lom bo‘ladi. U – yurak. Jamiyatni bir inson organizmiga qiyoslaydigan bo‘lsak, uning ta’lim-tarbiya bilan mashg‘ul bo‘ladigan juda muhim bir tashkiloti bor. U – maktab, oliy o‘quv yurtlari. Shu dargohlari sog‘lom bo‘lgan jamiyat kelajakda buyuk taraqqiyotga erishadi. Men bunga qat’iy ishonaman!




***“Men hurmatli ota-onalarga qarata aytmoqchiman: qizlaringizni o‘qiting, orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarishlarida ularga ko‘makchi bo‘ling! Ulug‘larimiz aytganlaridek, o‘g‘il bolani o‘qitsak, bir kishi savodli bo‘ladi. Qiz bolani o‘qitsak, butun oila, butun jamiyat bilimli bo‘ladi!”***

***Shavkat MIRZIYOYEV***

## E’TIROF



**Gunnar SHELLENBERGER,**
**Germaniyaning Saksoniya-Anhalt federal o‘lkasi prezidenti:**

## O‘zbekiston hamkorlikka munosib mamlakatdir

– O‘zbekiston bilan ko‘p yillardan buyon ishonchli va do‘stona hamkorlik olib borayotganimizdan juda mamnunman. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan mamlakatingizda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilayotganining guvohi bo‘lmoqdamiz.

Shaxsan o‘zim Saksoniya-Anhalt federal o‘lkasi rahbari va hozirda “Germaniya-O‘zbekiston forumi” prezidenti sifatida ishonch bilan ayta olamanki, so‘nggi yillarda ko‘plab sohalarda samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga erishdik. O‘zbekiston bugun xalqaro miqyosda Germaniya va Saksoniya-Anhalt federal o‘lkasi uchun hamkorlikka munosib mamlakatdir.

Davlatlarimiz o‘rtasida ko‘plab umumiy jihatlar mavjud. O‘zbekistonda kechayotgan barcha o‘zgarishlar Germaniya tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanmoqda. Hozirda yoshlar bilan ishlash, ta’lim, malakali mutaxassislar va ishchilar almashinuvi sohalarida samarali natijalarga erishmoqdamiz. So‘nggi paytlarda aloqalarimiz yanada tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Hamkorligimiz tufayli oramizdagi do‘stlik rishtalari, birodarlik aloqalari mustahkamlandi. Bu shaxsan meni juda quvontiradi.

Men mustaqil davlat sifatida oyoqqa turish qanchalik murakkab ekanligini yaxshi bilaman. Shuning uchun bu yo‘lda sizlar bilan yakdil va hamqadamligimizdan juda xursandman.

Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik va almashinuv barcha sohalarda yanada kengayishi, aloqalarimiz iqtisodiyot, tibbiyot, ta’lim sohasida tobora mustahkamlanishi taraf-doriman. Ayni paytda O‘zbekistondan kelgan nemis tili o‘qituvchilarining katta guruhi Saksoniya-Anhalt federal o‘lkasida o‘zlarining bilim va malakasini oshirmoqda.

Bunday hamkorligimiz uzoq yillar davom etishi va xalqlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar yanada rivoj topishiga ishonaman.




# PARALIMPIYACHILARIMIZ TARIX YARATMOQDA

Boshlanishi 1-sahifada.

Mamlakatimiz rahbarining sportga va yoshlar masalalariga qaratayotgan birday e’tiborining mahsuli sifatida bo‘y ko‘rsatayotgan bu yutuqlar sportsevar xalqimizning qalbiga cheksiz g‘urur va faxr tuyg‘ularini bag‘ishlamoqda. Ta’kidlash o‘rinli, o‘yin natijalari, yigit-qizlarimizning munosib ishtiroki borasidagi muhokamalar bugun kun mavzusiga aylangan. Qizg‘in tusda o‘tayotgan Parij–2024 Paralimpiya o‘yinlarida yurtimizning ayni paytdagi natijalari, o‘tgan o‘yinlardagi yutuqlar va shu kunga qadar yig‘ilgan medallar haqida ma’lumotlar gazetxonlar uchun qiziq bo‘ladi, deb o‘ylaymiz.

O‘zbekiston bu yilgi Paralampiya o‘yinlarida 5-sentyabr holatiga ko‘ra 6 ta oltin, 5 ta kumush va 4 ta bronza medali bilan kuchli o‘nlikda bormoqda. Paraatletika bo‘yicha Elbek Sultonov, Qudratilloxon Ma’rufxo‘jayev, Boburjon Omonov, Yorqinbek Odilov, Asila Mirzayorova – oltin, Doniyor Saliyev, Kubaro Hakimova – kumush, Tolibboy Yuldashev, Nurxon Qurbonova, Mohigul Hamdamova – bronza medallarini qo‘lga kiritgan bo‘lsa, parataekvondo bo‘yicha Asadbek Toshtemirov oltin, Ziyodaxon Isoqova, Guljonoy Naimova – kumush, para o‘q otish bo‘yicha Server Ibragimov kumush va parasuzish bo‘yicha Muslima Odilova bronza medali sohibiga aylandi.

1960-yildan buyon o‘tkazib kelinayotgan ushbu o‘yinlarga mamlakatimiz 2004-yildan beri ishtirok etib keladi. Dastlabki ikki o‘yinda – 2004 va 2008-yillardagi Paralimpiadada bizga medallar nasib qilmagan. Og‘ir atletika sport turi bo‘yicha ishtirok etgan Yusuf Qodirov Paralimpiya o‘yinlarida qatnashgan ilk o‘zbek sportchisiga aylangandi.

2012-yilgi London Paralimpiadasida esa atigi bitta kumush medal bilan 57-pog‘onani band etgandik. O‘shanda medal sohibi bo‘lgan Sharif Xalilov Paralimpiya o‘yinlarida medal olgan ilk o‘zbek sportchisi bo‘lgandi.

2016-yil Rio de Janero shahrida bo‘lib o‘tgan Paralimpiadada jami 8 ta oltin, 6 ta kumush va 17 ta bronza bilan 16-o‘rinni qo‘lga kiritganmiz. Yengil atletika bo‘yicha 3 ta oltin, 1 ta kumush, 3 ta bronza, dzyudo bo‘yicha 3 ta oltin, 1 ta kumush, 4 ta bronza, suzishda 2 ta oltin, 4 ta kumush, 6 ta bronza, og‘ir atletika va o‘q otish bo‘yicha 1 tadan bronza medallariga ega chiqqanmiz o‘shanda.

2021-yilgi Tokio Paralimpiadasida ham jami oltinlarimiz soni 8 ta edi. Shuningdek, 5 ta kumush va 6 ta bronza medali bilan unda ham 16-o‘rinni egallagandik. Yengil atletikadan 5 ta oltin, 2 ta kumush, 2 ta bronza, dzyudodan



2 ta oltin, 2 ta kumush, 2 ta bronza, taekvondodan 1 ta oltin, og‘ir atletikadan 1 ta kumush, suzishdan 2 ta bronza medallari bizniki bo‘lgandi.

Sport turlari bo‘yicha o‘tgan yillardagi jami medallarimiz sarhisob qilinganda quyidagi raqamlar kelib chiqadi: yengil atletika bo‘yicha 8 ta oltin, 3 ta kumush, 5 ta bronza, jami 16 ta. Dzyudo bo‘yicha 5 ta oltin, 4 ta kumush, 8 ta bronza, jami 17 ta. Suzishda 2 ta oltin, 4 ta kumush, 8 ta bronza, jami 14 ta. Taekvondo bo‘yicha 1 ta oltin. Og‘ir atletikada 1 ta kumush, 1 ta bronza, jami 2 ta medalimiz bor. O‘q otishda 1 ta bronzani ham qo‘shsak, yurtimizning o‘tgan Paralimpiya o‘yinlaridagi umumiy medallari soni 51 tani tashkil etadi.

2024-yilgi Parij Paralimpiya o‘yinlarida hozircha sportchilarimiz yengil atletika bo‘yicha 5 oltin, 2 kumush, 3 bronza, jami 10 ta medalni, taekvondo bo‘yicha 1 oltin, 2 kumush, jami 3 medalni, o‘q otish bo‘yicha 1 kumush, suzish bo‘yicha 1 bronza, jami bo‘lib 15 ta medalni naqd qilib turibdi. Hali imkoniyatlarimiz, oltin medal olishi mumkin bo‘lgan sportchilarimiz bor.

Bu yilgi o‘yinlarda 65 nafar o‘zbekistonlik sportchi 9 sport turi bo‘yicha ishtirok etmoqda.

Qolgan paralimpiyachilarimizga ham muvaffaqiyat tilaymiz, ularning har biriga yurtimiz bayrog‘ini baland ko‘tarish, sharafini munosib himoya qilish nasib etsin. Mana shu jo‘shqin sport o‘yinlarining shukuhi xalqimizni yanada jipslashtirsin, sport dunyo xalqlarini bir-biri bilan yanada yaqinroq do‘stlashtiraversin. Sportchilarimizga ulkan zafarlar yor bo‘lsin!

**Oqil ABDUBARNOYEV**

# O‘ZBEKISTONDA TRANSPLANTOLOGIYA ISTIQBOLLARI

Boshlanishi 1-sahifada.

### ILK BUYRAK KO‘CHIRILISHI

1972-yilning 14-sentyabrida ilk marotaba surunkali buyrak yetishmovchiligidan aziyat chekayotgan bemorga akademik O‘ktam Oripov tashabbusi bilan buyrak ko‘chirib o‘tkazilgan. Ammo o‘sha paytda dori-darmonlarning yetishmovchiligi sababli bemorlar uzoq yashay olmagan. Transplantatsiya ishi muvaffaqiyatsiz yakun topgan bo‘lsa-da, O‘ktam Oripov bu boradagi ilmiy izlanishlarini izchil davom ettirib, sobiq Ittifoq davlatlari shifokorlari orasida nom qozonadi.

2017-yilga kelib akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi professori Fazliddin Bahriddinov yurtimizda buyrak ko‘chirib o‘tkazish amaliyotining ikkinchi to‘lqinini boshladi. Muvaffaqiyatli jarrohlik amaliyoti o‘zbek shifokorlariga ishonch va kuch berdi. Tajribali xirurglar buyrak ko‘chirish amaliyotini o‘rganishga kirishdi. Ayni paytda klinikada yiliga 300 dan oshiq buyrak transplantatsiyasi o‘tkazilmoqda.

### MALAKALI GURUHNING SHAKLLANISHI

Buyrak ko‘chirib o‘tkazishga ruxsat berilishi barobarida, hududlardagi jarrohlik sohasida ishlayotgan shifokorlarda ham sohaga qiziqish uyg‘ondi. Albatta, xalqning salomatligi, ularni qiynayotgan kasalliklar va bu kasalliklarni bartaraf etish oq xalat kiygan har bir shifokorning zimmasidagi mas’uliyat hisoblanadi. Shu ma’noda, 2020-yilda samarqandlik bir guruh shifokorlar Toshkent shahrida buyrak transplantologiyasi bo‘yicha malaka oshiradi. Biroq pandemiya tufayli o‘qish jarayonlari bir yilga cho‘zilib ketadi.

2021-yil 11-iyulda Samarqand viloyati ko‘p tarmoqli tibbiyot markazida birinchi buyrak ko‘chirish operatsiyasi amalga oshirildi. 2022-yilda bu shifokorlar malaka oshirish uchun Rossiya va Turkiyaga yuborildi. Vatanga qaytgan samarqandlik transplantologlar mustaqil ravishda 10 nafar bemorga buyrak ko‘chirib o‘tkazdi. Bu yerda hozirga qadar buyrak yetishmovchiligidan aziyat chekayotgan 82 nafar bemorga sog‘lom a’zo ko‘chirib o‘tkazilgan va ularning deyarli barchasi ijtimoiy faol hayotga qaytgan. Lekin hali viloyatda 160 nafarga yaqin bemor buyrak ko‘chirishga potensial muhtoj.

– Eslasam, hozir ham vahimaga tushaman, – deydi buyrak transplantatsiyasi bo‘yicha birinchi jarrohlik ishi haqida hikoya qila boshlagan samarqandlik transplantolog, tibbiyot fanlari nomzodi Sherali Norqo‘ziyev. – Toshkentdan mutaxassislar kelgan. Asosiy ish ularning zimmasida. Lekin javobgarlik mening bo‘ynimda. Chunki bemor meniki... Nima bo‘lsa peshonamdan ko‘raman, degan tuyg‘u ko‘nglimdan o‘tgan o‘shanda. Operatsiya olti soat davom etdi. Hammasi yaxshi o‘tdi, deb yengil nafas olganimda, bemordan qon keta boshladi. Hammamiz oyoqqa turdik. Qon to‘xtatilsa ham, vahimasi ketmadi. Boshqa ishlar orasida ham xayolim shu bemorimda bo‘ldi. Shunchalik diqqat bo‘lganimdan, vaqt allamahal bo‘lib ketganini, soat tungi uchga zang urganini ham bilmabman. Hamkasblarning: “Do‘xtir, juda charchadingiz, biroz dam oling. Hademay tong otadi”, degan gapi bilan o‘zimga kelganman. O‘sha bemor hozir kirakashlik qiladi. Uylanib, bola-chaqalik bo‘lib ketgan.



Shu kungacha amalga oshirgan operatsiyalaringizning hammasi muvaffaqiyatli yakunlanganmi, deb so‘radingiz. Ha, deyarli barcha operatsiya jarayonlari juda yaxshi o‘tgan. Faqat operatsiyadan keyin bizga bog‘liq bo‘lmagan holatlar sababli ba’zi bir bemorlarning holatida kutilmagan o‘zgarishlar yuz bergan.

Jumladan, ikki nafar bemorim koronavirus, bir nafari tuberkulyoz, yana ikki nafari esa muolajaga jiddiy qaramagani, dorilarni vaqtida iste’mol qilmagani tufayli vafot etgan. Shu yerda bir narsani aytishim kerak: bizda aksariyat odamlar o‘z salomatligiga e’tiborsizlik bilan qaraydi. Mana shunday beparvo bemorlar shifokorga qiyinchilik tug‘diradi.

Buyrak transplantatsiyasidan vafot etgan bemorimning ahvoli o‘ta og‘ir edi. Buning ustiga, koronavirusga chalingandi. Qarindosh-urug‘lari vaziyatni tushunib turibdi. Lekin men vijdon azobida qoldim. Qayerda, qanday xato qildim, degan savol qiynayverdi. Shifokor bemori nobud bo‘lsa, hech kim hech nima demasa ham o‘zini ayblaydi. Yashab ketgan bemoring esingdan chiqib ketishi mumkin, lekin vafot etganini unutolmaysan. Xayoldan chiqarib bo‘lmaydi...

O‘rni kelganda aytish joiz, sohani rivojlantirish uchun bizga birinchi galda yaxshi transplantologlarni tayyorlab beradigan alohida bir kafedra kerak. Chunki malakali kadrlar birlamchi masaladir. Mutaxassislarni yetishtirib, ularning intellektual salohiyatini kuchaytirishimiz, aholining tibbiy savodxonligini oshirishimiz zarur. Shu kungacha dunyo miqyosida tanadan sog‘lom a’zolarning to‘g‘ridan to‘g‘ri transplantatsiyasiga qonun yo‘l qo‘ymasdi. Endi asta-sekin ruxsat berilyapti. Bizda ham qonunan ruxsat bor, albatta. Faqat o‘sha odam ichki a’zolarini boshqa birovga ko‘chirib o‘tkazish uchun tirik chog‘ida notarial vasiyat qilgan bo‘lishi kerak. Belorussiyada esa, aksincha, tana a’zolari transplantatsiya qilishga olinmasligi uchun vasiyat yozib qoldiriladi. Sababi, 98 foiz beloruslar o‘z organlarining boshqalarga o‘tkazilishiga xayrixoh.

Deylik, bir odam baxtsiz hodisa tufayli vafot etdi. Uning ichki a’zolari sog‘lom va ular bir qancha insonni hayotga qaytarishi mumkin. Masalan, bitta jigarni ikki kishiga ko‘chirsa bo‘ladi. Bundan tashqari, o‘pka, ko‘zning shohpardasi, oshqozonosti bezi va hokazo... A’zolar qaysi tanada bo‘lsa ham yashagani yaxshi emasmi? Mana shuni xalqqa to‘g‘ri tushuntirish kerakdir balki...



Umrining qirq yilini tibbiyotga bag‘ishlagan jarroh qahramonimiz Sherali Norqo‘ziyevning masih qo‘llari millionlab o‘lik hujayralarni tiriltiryapti. U uzilib tushgan qo‘lni ulab, tiklay olgan shifokordir. Unga temir kesadigan elektr arrada ehtiyotsizlik qilib qo‘lini bilagidan kesib qo‘ygan ustani olib kelishadi. Cho‘rt uzilgan a’zoni joyiga ulab, to‘liq jonlantirish uchun baxtsiz hodisa ro‘y bergan daqiqadan boshlab olti soat ichida eng yuqori tezlikda harakat qilish lozim. Tomirlar va to‘qimalarni bir-biriga to‘g‘ri keltirish, ulash hazilakam ishmas. Yigitni olib kelishguncha uch soat vaqt o‘tib ketgan bo‘lishiga qaramay, shifokor bor mahoratini ishga soladi. Qo‘lni bilakka mahkamlab tikib chiqadi...

– O‘sha yigit meni ko‘rgani kelib turadi uni har ko‘rganimda bir suyunaman. Birinchi bo‘lib o‘sha ulangan qo‘liga qarayman. Bemalol ishlatayotganini ko‘rib xotirjam tortaman, – deydi Sherali Norqo‘ziyev.

### TANA A’ZOLARINING “ONG”I

Samarqand viloyati ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi faoliyati bilan tanisha turib, bir surat diqqatimizni tortdi. Unda bir qo‘li peshonasiga qo‘shib bog‘lab qo‘yilgan bemorning holati aks etgan. Savol nazari bilan qarab turganimni ko‘rib, “Bu bemorning peshona terisi kuyib qolgan. Kuygan joyi kesib olinib, bilakning yupqa ichki terisidan bir bo‘lak ko‘chirib o‘tkazilgan. Peshona terisi bilakdan olingan ulama terining begona emasligini sezib turishi uchun bemorning bilak qismi transplantatsiya obyektiga yaqin turishi kerak bo‘ladi. Inson tanasi agar o‘ziga ulangan tana bo‘lagi boshqa joydan kelganini “bilib qolsa”, uni qabul qilmaydi. Shuning uchun ham, buyrak ko‘chirib o‘tkazishda qarindosh bo‘lmagan begona odamdan buyrak olishning imkoni yo‘q”, deya izohladi angoxirurgiya markazi jarrohi Alisher Norqobilov.

Shuningdek, buyrak beruvchining qabul qiluvchi bilan o‘rtasidagi genotip moslikni juda chuqur aniqlash shart. Bu moslik hatto opa-singil, aka-ukalarda ham bo‘lmasligi mumkin. Masalan, donorning o‘zida qolgan buyragi yaxshi faoliyat ko‘rsatyaptimi, yo‘qmi, buni nazoratga olish kerak. Bundan tashqari, buyrak qabul qilgan bemor hayoti ham xavf ostida bo‘ladi. Chunki organizm buyrakning begonaligini “sezsa”, o‘sha yangi a’zoga qarshi kurashadi. Agar jarayonda bu holat yuz beradigan bo‘lsa, ko‘chirib o‘tkazilgan buyrak faolligini yo‘qota boshlaydi va buyrak qabul qiluvchining hayotiga xavf soladi. Shuning uchun ham buyrak ko‘chirish amaliyoti murakkab operatsiya hisoblanadi.

### BUYRAKNING BAHOSI QANCHA?

Bir qarashda g‘alati savol. To‘g‘rimi? Ammo buyrak ko‘chirib o‘tkazish narxi xorijiy davlatlarda eng kamida 15 ming dollar turadi. Mehmonxona va boshqa xarajatlari bilan 20 ming dollarga tushadi. O‘zbekiston sharoitida esa tekshiruv ishlariga atigi o‘rtacha 10-15 million so‘m sarflanadi. Buyrak ko‘chirish uchun klinikaga yotqizilgan kunidan boshlab har bir bemor uchun davlat tomonidan 120 million so‘mgacha moddiy yordam ko‘rsatiladi. Ya’ni, “inson qadri har narsadan ulug‘” tamoyilidan kelib chiqib, shu xarajatlarning katta qismi davlat tomonidan qoplab beriladi. Hozirgi kunda ushbu kasallik bilan og‘rigan bemorlarning 70 foizgacha qismini 20 yoshdan 35 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etadi. Dunyoda har million kishining qirq nafari buyrak transplantatsiyasiga ehtiyojmand ekan.

### BEMOR SHIFO ISTAB XORIJGA BORMASIN

O‘zbekistonda amaliyot boshlanguniga qadar yurtdoshlarimiz bu operatsiya uchun Hindiston va boshqa mamlakatlarga borib kelishga majbur edi. Bu ularga bir necha barobar qimmatga tushardi.

Buyrak ko‘chirish operatsiyasi murakkab jarayon ekanini aytib o‘tdik. Bemor va donor uch oydan besh oygacha vaqt davomida operatsiyaga tayyorlab boriladi. Shuningdek, xorijda ham bu kasallikning laborator tekshiruvlari bizdagidan bir necha barobar qimmat. Qolaversa, chet elga borib, buyrak almashtirish uchun yo‘lkira xarajatlari va yana boshqa davlat klinikalarining “koyka” narxi ham qo‘shiladi. Xorijiy bemorlar uchun hamma mamlakatda ham tibbiy xizmatlar pullik. Boshiga dard tushgan odamning bir yurtdan boshqa yurtga qatnashi ham osonmas. Bemor bilan birga donor va albatta, bir nafar qarovchi borishi kerak. Buning ustiga chet elda til bilmaydigan bemorlarning aldanib, chuv tushishi ham bor...

### MUAMMOLAR HAM YO‘Q EMAS

Ichki a’zolar transplantologiyasi milliy tibbiyotimiz uchun hali yangi soha hisoblanadi. Malakali shifokorlarga ehtiyoj katta. Avvalo, soha mutaxassisligiga o‘qish jarayonlarini o‘zimizda tashkil etish kerak. Chet davlatga borib malaka oshirayotgan shifokor til bilsa yaxshi, bilmasa, tajribada o‘rganaveradi, lekin jarayonning eng nozik tomonlarini o‘zlashtirolmay qoladi. Yana malaka oshirish chog‘ida ketadigan mablag‘ masalalari ham bor.

Hozir butun dunyoda yurak va jigar ko‘chirib o‘tkazilyapti. Bu sohani rivojlantirishni qamrovli tashkil etish zarur. Ya’ni, tajribali va bilimli transplantolog guruhlarini tashkil qilish kerak. Guruh tarkibida anesteziolog, terapevt, psixiatr, hatto alohida hamshira bo‘lishi lozim.

Har bir viloyat klinikalarining, hech-qursa, bittasida alohida bo‘lim, alohida shtat birliklari tashkillashtirish maqsadga muvofiq. Shifokorlar transplantolog degan alohida maqomga ega bo‘lishi kerak.

Xo‘sh, bu maqom nimaga kerak? Oddiy xirurg bilan transplantolog-jarrohning farqi juda katta. Oddiy jarroh faoliyati davomida oladigan stressni bir foiz deb olsak, transplantologniki undan bir necha barobar ko‘pdir. Chunki transplantolog bir operatsiyada to‘g‘ridan to‘g‘ri ikki odamning hayotiga javobgar bo‘ladi. Bir paytning o‘zida ikki bemor bilan ishlashiga to‘g‘ri keladi.

### GAP MALAKA VA TAJRIBADA

Transplantolog ko‘chiriladigan a’zoni qo‘li bilan ushlab ko‘rishi, ikki inson hayotida hal qiluvchi maqomda ekanini yurakdan his etishi zarur. Bemori bilan birga nafas olishni, ularning hayoti uchun qayg‘urishni bilishi shart.

Ta’bir joiz bo‘lsa, shifokor har bir bemori tuzalguniga qadar uning hayotiga ko‘chib o‘tishi kerak. Ayniqsa, jarrohlik amaliyotlari hissiyotlar, sezgilar bilan birga kechganida g‘oyat ahamiyatlidir.

Buyragi ishdan chiqqan bemor yillar davomida ham jismonan, ham ruhan charchaydi. Uning uyqusizlikdan chekkan azoblari, kamqonlik, buyrak ishlamasligi oqibatida peshob orqali butun organizmga tarqalgan zahar o‘z kuchini ko‘rsatgan bo‘ladi. Ularning ko‘pchiligi dializ yordamida yashayotgan bemorlardir. Dializ esa tabiiy modda almashinuvi o‘rnini bosolmaydi.

Aslida birgina giyohni qurimasin deb boshqa joyga ko‘chirishda, uni parvarishlashda qancha savob bor. Ba’zilar tana a’zolari transplantatsiyasiga qarshi chiqar, balki. Ammo dunyoda yagona haqiqat bor, u ham bo‘lsa – inson qadri, uning salomatligi!

Zero, biz bugun “Davlat, jamiyat, inson” emas, “Inson, jamiyat, davlat” tamoyiliga asoslangan, ya’ni inson qadri birinchi o‘ringa ko‘tarilgan mamlakat fuqarosimiz. Bu buyrak transplantologiyasi uchun davlatimiz tomonidan har bir bemorga ko‘rsatilayotgan e’tibor va g‘amxo‘rlikda ham o‘z aksini ko‘rsatyapti. Inson qismatiga doxil ezgulikning bahosida esa juda ulug‘ qiymat mujassam.

**Muhayyo PIRNAFASOVA**

ENAXON SIDDIQOVA TAVALLUDINING 70 YILLIGI



# SHE’RIYATIMIZNING ONAGULI EDI

**Enaxon opam bilan qachon, qayerda tanishganim yodimda yo‘q. Ehtimol, esimni tanib, kitob, gazeta jurnallarni o‘qiy boshlaganimdayoq tanigan bo‘lsam kerak. Xotiralar bisyor, ammo yorug‘ kunlardan boshlanib, ayriliq bilan bir nuqtaga kelgan o‘ylarim og‘riq bera boshlaydi.**

**O‘zbekiston xalq shoiri Enaxon Siddiqova ko‘nglida tiriklik qo‘ng‘iroqlari, shamollar poyiga bosh urib yig‘lasa ham, gullar yo‘llariga bor yaprog‘ini sochib yuborsa ham to‘xtamay oqayotgan daryoga o‘xshardi. Ijodiy safar yo‘llarim Farg‘onaga tutashsa, quvonib yo‘lga tushardim. Chunki ko‘zlari to‘rt bo‘lib kutib oladigan, “Yana kelasizmi, kutamiz”, deya kuzatib qoladigan qadrdonimiz, mehribonimiz bor edi.**

...Mustaqillik bayrami arafasida bir guruh ijodkorlar go‘zal Farg‘onaga yo‘l oldik. Ma’rifiy uchrashuvlar chog‘ida chekka-chekka qishloqlardagi yurtdoshlarimiz bilan diydorlashdik. O‘sha kuni Log‘on qishlog‘idagi madaniyat saroyida tumonat odam yig‘ilgan ekan. Atlas ko‘ylaklari yarashgan shirin qizaloqlarning qo‘llaridan atirgullar olib, yo‘lakdan o‘tib borardik. Birdan nuroniy onaxonni opichib olgan yigitga ko‘zimiz tushdi. Enaxon opa ikkimiz ularning yoniga bordik. Qadrdonlardek quchoq ochib ko‘rishgan onaxon bizga shunday dedi:

– To‘qqiz o‘g‘il-qizni yolg‘iz boshim bilan boqdim. Otasiz ko‘ngillari o‘ksimasin deb hovlimga ziravorlar ekib bozorga eltdim, tunda do‘ppi tikib ro‘zg‘orim kamini to‘ldirdim. Endi rohat ko‘ray deganda uch-to‘rt yil bo‘ldi, oyoqdan qoldim. Xudoga shukur, yoshim saksonda, hayotni yaxshi ko‘raman. Yashagim keladi. Saroyga tanilgan artistlar, shoirlar kelishini eshitib, uyga sig‘may qoldim. Nabiram Muxtorjon ko‘tarib olib keldi-da.

Enaxon opa o‘sha tabarruk momoning nabirasi bilan yana nimalarnidir gaplashdi. Tadbir boshlangani uchun shoshib yo‘limizda davom etdik. Ikki-uch soat davom etsa ham yig‘ilganlar ketgisi, xayrlashgisi kelmasdi. Ketar chog‘imizda esa ajoyib manzaraga duch keldik. Yangi aravachada yastanib o‘tirgan onaxon bizni yig‘lab duo qilardi. Jonkuyar opamiz esa bu quvonchga o‘zi sababchi bo‘lmagandek, go‘yo hech gapdan xabari yo‘q odamdek bir chetda jilmayib turardi. O‘sha payt elning suygan shoirasi yozgan satrlar yodim sahifalarida aks sado bera boshladi:

*Ayol ketib borar... tunday yoyilgan,*
*Baxtsizlikday qaro sochlarin g‘ami.*
*Ko‘ngil mehrobiga yoqib qo‘yilgan,*
*Qirq bitta jonining qirq bitta shami...*

She’riyatning Onagulidan ko‘p yaxshi amallar, gurkirab bo‘y cho‘zayotgan o‘nlab nihollar qoldi. Har on, har qadamda yaxshilik ulashib, ko‘ngilni ko‘ngilga payvand qilish ilmini o‘rgatib ketdi. Bu dunyoning ko‘ngil bilan ishi yo‘q ekanini botbot aytib, ezgu yo‘llar boshida yo‘lchiroq bo‘lmoqlik sabog‘ini berib ketdi.

Enaxon Siddiqova Farg‘onada o‘tadigan ma’rifiy bayramlarning tashkilotchisi, tashabbuskori, katta jamoat arbobi ham edi. Shunday bayramlardan yana biri Qo‘qon shahrida o‘tkazildi. Poyezddan tushgan mehmon ijodkorlarni kutib olganlar orasidan fidoyi opamizni ko‘rib ko‘nglimiz yashnab ketdi. Uch kun birga yurdik. Qo‘qon, Dang‘ara, Marg‘ilon tomonlarni kezdik. Tadbirlar chiroyli o‘tdi.

Oradan ko‘p o‘tmay, opamning biroz betob bo‘lganini eshitib kasalxonaga bordim. Shunda ham jilmayib turardi. Suhbatlashib o‘tirdik, dardidan so‘z ochmadi. Ahvoli yaxshi emasligi ko‘rinib turardi. Lekin xastalik jonidan o‘tib tursa ham bildirmaslikka harakat qilardi. O‘shanda nurli yuzlarini, issiq mehrini oxirgi marta ko‘rayotgan ekanman. Bilmay qolibman, g‘aflat bosibdi. Ko‘proq borishim kerak edi. Qo‘ng‘iroqlarimga javob bermasa, borib eshik qoqsam bo‘lardi.

Enaxon Siddiqova umrini go‘zallikka, yorug‘likka, insonlarning qadrini ko‘tarishga baxshida etgan edi. Ezgu amallari birma-bir yod etilar ekan, u insonsevarlikning, hayotsevarlikning muhtasham obidasiga aylanib borayotgandek go‘yo...

Umr bo‘yi xalq xizmatiga kamarbasta bo‘lgan shoirani bugun el-u yurt yuksak ehtirom bilan xotirlamoqda. Hukumatning joriy yil fevral oyida e’lon qilingan farmoyishiga binoan O‘zbekiston xalq shoiri Enaxon Siddiqova tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlangan qator tadbirlar tashkil etilmoqda. Yozuvchilar uyushmasida o‘tkazilgan “Umr yaxshilikka safar bo‘lsaydi” nomli xotira kechasi shular jumlasidandir.

Mazkur tadbirda Enaxon Siddiqovaning hayoti va ijodiy faoliyatiga oid suratlar hamda chop etilgan kitoblar ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi. Xotira kechasida taniqli yozuvchi-shoirlar, adabiyotshunos olimlar, madaniyat va san’at namoyandalari, harbiylar, shoiraning oila a’zolari jam bo‘ldi.

Enaxon Siddiqova butun hayoti davomida odamlarga faqat yaxshiliklar, ezgu amallar ulashib kelgan edi. Ana shu qutlug‘ yumushlari bugun uning nurli xotirasini gullarga o‘rayapti.

**Munavvara USMONOVA,**
**O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi**

MULOHAZA

# BUGUNGI BOLALAR ADABIYOTI MUAMMOLARI



**Sovet davri adabiyotshunoslari o‘zbek bolalar adabiyotining paydo bo‘lish solnomasini “Ulug‘ oktyabr inqilobi” deya sharaflab kelingan sana bilan bog‘laydi. Taniqli adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori Rahmatulla Barakayevning tadqiqotlarida esa bu fikrga keskin raddiyalar beriladi. Olim o‘zining ma’rifatparvar jadid Abdulla Avloniy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotida sovet davri adabiyotshunoslari fikrlari asossiz ekanini birinchilardan bo‘lib isbotlab, folklor va mumtoz namunalar bolalar adabiyotini boyitib turuvchi manba ekanini ta’kidlaydi.**

Rahmatulla Barakayev boshlab bergan xayrli ishlarni davom ettirish uchun keyingi tadqiqotchilar oldida o‘zbek bolalar adabiyotining rivojlanish bosqichlarini davrlarga bo‘lib o‘rganish, mazmun-mundarijasini tadqiq qilish vazifalari turadi.

XX asr boshlaridan 1950-yillargacha bo‘lgan davr esa alohida izlanishlar uchun mavzu bo‘la oladi. Bu davrda yetishib chiqqan Hamid Olimjon, G‘ayratiy, Sulton Jabbor, Zafar Diyor, Qudrat Hikmat, Ilyos Muslimning quvnoq va sho‘xchan she’r va qo‘shiqlari bolalar adabiyotini boyitishga xizmat qilgani e’tirofga molik.

Jahon adabiyotining nomdor vakillari bolalar uchun asar yaratish o‘ta murakkab yumush ekanini ta’kidlagan. Sababi, bunday asarlar yozish uchun ijodkorda bolalarga xos ruhiyat bo‘lishi zarur. Umumjahon bolalar adabiyotining o‘ziga xos xususiyati ishonarlilik, soddalik, ohangdorlik va sarguzashtga boyligi bilan ahamiyat kasb etadi. 1950-yilgacha bo‘lgan o‘zbek bolalar adabiyotida ana shu jihatlar ko‘zga tashlanadi. 1950-yildan 1970-yillar boshlarigacha bo‘lgan davrda esa o‘zbek bolalar adabiyotidagi tiniq ohanglarni nasihatbozlik bosib ketdi. Bolalar bog‘chasidan maktabgacha bo‘lgan ta’lim dargohlari darsliklari faqat ana shunday pand-nasihat, quruq bayonchilikdan iborat she’rlar bilan to‘ldirildi. 1970-yillar o‘rtalarida o‘zbek bolalar adabiyotida yangi to‘lqin vujudga keldi. Tursunboy Adashboyev, Anvar Obidjon, Xudoyberdi To‘xtaboyev, Safar Barnoyev kabi o‘nlab ijodkorlarning asarlarida bolalar dunyosiga xos quvnoqlik, sodda va beg‘ubor tuyg‘ular tarannum qilingan. Ayniqsa, mustabid davr bo‘lishiga qaramay Anvar Obidjon asarlarida mustaqillik, ozodlik g‘oyalari ilgar surildi. Ijodkorning “Ey yorug‘ dunyo” qissasi XX asrning saksoninchi yillarida kitob holida ko‘pming nusxada chop qilingan. Muallif bolalar tiliga mos ravishda yaratgan bu asarida kuchli hajvga urg‘u beradi. Yulduziston fuqarolari ikkiyuzlamachi, o‘zligini unutgan, yuviqsiz shaxslar deb ko‘rsatiladi. Ular uchun poklik va ezgulik yot narsa. Kimki yuvinsa, poklansa, jazo olishi muqarrar.

Ammo tikanzor orasida to‘tiyo bitganidek, bu zaminning adolatpesha, halol insonlari ham bor edi. Ular bu yerda bijib yotgan chirkinlikka qarshi kurashgisi, adolat o‘rnatgisi keladi. Asar bosh qahramoni bo‘lgan bola ularga rahnamolik qiladi. Ular birgalashib zulmat saltanati hukmdoriga qarshi kurashadilar va yorug‘ dunyoga chiqishga muvaffaq bo‘ladilar...

Ushbu asarda ulug‘ bir ishora – mustaqillik g‘oyasi tepamizda qizil imperiya zug‘umlari avj olgan turg‘unlik davri, ya’ni 1980-yillarda ilgari suriladi.

Yozuvchining “Dahshatli Meshpolvon” kitobida ham ozodlik g‘oyasi sovet davrida dadillik bilan qalamga olingan. Undagi Meshpolvonning ota-onasini tutqunlikka giriftor etgan Qahratoniya podshohi bilan kurashib, uni yengib bandi qilingan vatandoshlarini qullikdan qutqarib qaytishi bugungi erkin, tinch va farovon turmushimizga bo‘lgan umidni aks ettirgan edi.

Darhaqiqat, adabiyot kechagi kundan ko‘ra bugunning va kelajak borasidagi o‘y-xayol, orzu-umid, fikr-mushohadalarning timsoli bo‘lsa, yanada qudratli bo‘ladi. Ko‘ngil istagini o‘z vaqtida aks ettirolgan adiblar eng baxtli iste’dod sohiblaridir. Qo‘liga qalam tutgan qobiliyat egasi adabiyot oldidagi o‘z burchi nimalardan iborat ekanini chuqur his etmog‘i lozim. Fikrni g‘oyani o‘z vaqtida ilgari surmog‘i zarur.

Shu ma’noda, Tursunboy Adashboyev, Xudoyberdi To‘xtaboyev va Anvar Obidjon o‘zbek bolalar adabiyotida tub burilish yasagan ijodkorlar sanaladi. Ular tamal toshini qo‘ygan o‘zbek bolalar adabiyotining yangi davri jahon jamoatchiligi tomonidan e’tirof etilgan, asarlari ko‘p tillarga o‘girilib, adabiyotshunos olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Bugun bolalar adabiyoti vakillari oldida “Ustozlar olib chiqqan rivojlanish nuqtasini saqlab qololamizmi yoxud undan ham yuqori darajada takomillashtira olamizmi?” degan savol kun tartibida turibdi. Bu savolga to‘laqonli javob berish uchun salmoqli asarlar yaratish zarur.

Ta’bir joiz bo‘lsa, bolalar adabiyotini katta bir eshelonga qiyoslash mumkin. Kichkintoylar uchun yaratiladigan qo‘shiq, badiiy film va spektakllarning barchasi bolalar adabiyoti mahsulidir. Shuning uchun ham bolalar adabiyoti oqsasa yoxud e’tibordan chetda qolsa, jajjilar olami deb ataladigan boshqa san’at turlari ham turg‘unlikka yuz tutadi.

Nazarimda, bugungi bolalar adabiyoti haqida ko‘pchilik yakdil fikr bildirishi qiyin, albatta. Bolalar ijodkorlarini qiynayotgan talaygina muammolar mavjud. Bu borada so‘z ketganda, birinchi navbatda targ‘ibot masalasi haqida to‘xtalgan ma’qul. Bir paytlari markaziy televideniyeda “Shoirlar – bolalarga!” degan ajoyib ko‘rsatuv efirga uzatilardi. Shu ko‘rsatuv qayta tiklansa, ayni muddao bo‘lar edi. “Bolajon” kanalining mavzular doirasi juda tor. Faqat har xil shou o‘yinlari, multfilm va kinodan boshqa narsa berilmayapti. “Bolajon”, “Ma’naviyat va ma’rifat”, “Yoshlar” kanallarida ham bolalar shoir va yozuvchilari uchun har hafta vaqt ajratilsa, yosh tomoshabinlar o‘z davri adiblarini tanib, asarlari bilan tanishib borish imkoniga ega bo‘lardi.

2020-yilda G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijod uyi “Biz yodlaymiz, tez yodlaymiz!” ruknida bolalarbop turkum kitoblarni chop qilgan edi. Afsuski, bu turkum kitoblar orasida bolalar uchun yozishda hali qalami charxlanmagan ijodkorlarning ham to‘plamlari bosilib chiqdi. Sevgi-muhabbat yoxud boshqa mavzuda binoyidek she’rlari bilan elga tanilgan shoirlarning bolalar uchun chiqargan kitobi mutaxassislar tomonidan yaxshi baholanmagani ham sir emas. Chunki she’rda mavzu bolalarbop bo‘lgani bilan so‘z, ohang, hijolar o‘qish va yodlash, shuningdek, tushunib yetishga qulay, sodda, ravon bo‘lmog‘i kerak. Afsuski, “Biz yodlaymiz, tez yodlaymiz!” turkumida chop qilingan katta shoirlarning bolalar uchun chiqargan kitoblarida tajribasizlik ko‘zga tashlanib turibdi. Meningcha, bunday turkumlarda bir nafar bolalar adibining bir necha kitobini nashr qildirganda ham yutqazilmaydi.

Maktab ta’limi uchun mo‘ljallangan “O‘qish savodxonligi”, “Ona tili” va “Adabiyot” darsliklari bolalar adiblari bilan bamaslahat yaratilsa maqsadga muvofiq ish bo‘lardi. Yana e’tibor berish kerak bo‘lgan jihat shuki, boshlang‘ich sinf darsliklari hammualliflaridan biri filolog, ayniqsa, bolalar adabiyotini yaxshi biladigan mutaxassis bo‘lsa...

Taklif sifatida aytmoqchimanki, har olti oyda poytaxtda bolalar uchun asar va darsliklar yozayotgan ijodkorlar hamda mazkur soha tadqiqotchilarining boshini bir joyga to‘plab, ularning muammo va yutuqlari o‘rganilsa, seminar-kengashlar tashkil qilinsa, ayni muddao bo‘lar edi. Bunday tadbirlarda nafaqat adabiyotshunos olimlar, shoir va yozuvchilar, balki kinochi-ssenariynavislar, teatr rejissyorlari, bastakor va rassomlar ham ishtirok etib, bolalar uchun san’at asarlari yaratish masalalarini muhokama qilishsa, nur ustiga nur bo‘lardi. Chunki bolalar uchun nafaqat yaxshi kitob, balki yaxshi va qiziqarli kino, qo‘shiq hamda boshqa san’at asarlari ham o‘ta zarur.

E’tibor bering, “Buratino”, “Bor ekanda, yo‘q ekan”, “Chippolino”, “Finis sarlochin” kabi badiiy filmlar yaratilganiga yarim asrdan oshibdi, biroq bolalar hanuz ularni sevib tomosha qilib kelmoqda.

Yosh avlod tarbiyasida hamisha hushyorlik va bedor ruh talab qilinadi. Bir nafas bo‘lsin mudrab, loqaydlikka beriladigan bo‘lsak, juda katta imkonni boy berib qo‘yishimiz mumkin.

**Erpo‘lat BAXT,**
**O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi**

YAXSHILAR YODI

# Mumtoz she’riyatning sodiq davomchisi

**Yoshlari ulug‘ ustoz qatori adiblardan biri shoir va dramaturg Sobir Abdulla edi. G‘afur G‘ulom bilan tengdosh, ko‘zlari odamga ma’noli boquvchi hassos ijodkor bilan biz o‘z vaqtida hamsuhbat bo‘lganimizdan faxrlanib yuramiz. Uning aruz vaznida yozgan she’r-u g‘azallari o‘tmishda yashab o‘tgan shoirlarnikidan qolishmas, shu boisdan aksariyati ashula qilib kuylanardi. U kishi eski − mumtoz she’riyatning shu kundagi haqiqiy davomchisi hisoblanardi.**



Sobir Abdullaning “Tohir va Zuhra” dramasi uzoq yillar sahnadan tushmadi. O‘sha asarga yozilgan “To‘ylar muborak” ashulasi to hanuzgacha to‘yda kelinni kutib olishda ijro etiladi. Sobir akaning “Namasan” degan hajviy she’ri “Mushtum”da bosilganda hamma zavq bilan yoddan aytib yurardi. Sobir aka o‘z hamyurti (u kishi qo‘qonlik edi) shoir Muqimiyni juda e’zozlardi. Muqimiy tilidan yozgan va haqiqatan ham muqimiycha chiqqan g‘azallari shoir Muqimiyga tegishliday bo‘lib, ko‘p olimlarni chalg‘itib qo‘yardi ham. Uning hajviy hikoyalari, shoir Muqimiy haqida yozilgan romani ham ko‘pchilikka manzur bo‘lgan edi.

Sobir Abdulla “Mavlono Muqimiy” romanini yozganda o‘sha paytda nashriyot kattasi bo‘lgan bir “bilimdon” bu asarni rosa qaychilab, roman emas − “Badiiy lavhalar” deb nashr etishga majbur qiladi. Sobir aka “Mushtum”ga kelganida bir yozuvchiga: “Kitobning korrekturasini bizga o‘qishga yuborishgan ekan. Shu qadar buzganliklarini ko‘rib butun oilamiz bilan o‘tirib yig‘ladik”, deganini o‘z qulog‘im bilan eshitganman.

Yetmishinchi yillarning boshlarida Sobir aka “Mushtum” idorasiga hayajonlanibroq kirib keldi. Biz yoshlarga nimanidir aytmoqchi bo‘ldi. Biz u kishiga jon qulog‘imizni tutdik. Sobir aka o‘zining Oliy Sud idorasidan kelayotganini va unga Abdulla Qodiriyning qamalishga doir hujjatlarni − so‘roq bayonnomalari va hukmni ko‘rsatib, o‘qib berishini so‘rashganini aytdi. “Qarang, so‘roq bayonnomasining har bir sahifasida Abdulla Qodiriyning imzosi bor. U har sahifaning ostiga “Bu gaplar tuhmat”, “Gunohim yo‘q”, “Sutday oqman”, deb yozib keyin imzo chekkan ekan”, dedi.

Bu gaplarni aytayotganida shoirning ko‘zoynak ostidagi ko‘zlari charaqlab ketgandi. Go‘yo siyosatga umuman aralashmaydigan bo‘lib ko‘rinadigan bu kishi mash’um tuzum qurboni bo‘lgan atoqli adib Abdulla Qodiriyning dahshatli qiynoqlardan so‘ng ham o‘zini mardona tutolganini biz yoshlarga yetkazayotganligidan baxtiyor edi.

Ko‘p o‘tmay “Sobir aka kasal bo‘lib qolibdi, jarroh muolajasi ham yordam bermabdi”, degan gapni eshitib, biz − yosh mushtumchilar u kishini ko‘rgani bordik. Ammo adibni ko‘rolmadik, bizga: “Sizlar bilan gaplasholmaydilar, ahvoli og‘ir”, deyishdi. Biz ma’yus qaytdik, ikki kundan keyin esa adib joyiga qo‘yildi...

**Muxtor XUDOYQULOV,**
**filologiya fanlari doktori, professor**

UZILMAS RISHTA

# Turkman elining ulug‘ farzandi

**Maxtumqulining buyuk shoir bo‘lib yetishishida, avvalo, otasi katta o‘rin tutgan. Davlatmamat Ozodiy esa qardosh turkman xalqining buyuk farzandi Maxtumqulining padari buzrukvori bo‘ladi.**

**Ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu avlodning boshlang‘ich nuqtasi Maxtumquli egarchiga borib taqaladi. U taxminan 1654-yilda Kopetdog‘ etaklaridagi Hoji Govshan qishlog‘ida tug‘ilgan. Egarsozlik bilan shug‘ullangan. Maxtumquli egarchi qirq yoshga kirganda farzandli bo‘lgan va unga Davlatmamat ismini qo‘ygan. Bola 12 yoshga yetganida ota dunyodan o‘tadi.**

Davlatmamat avval qishloq maktabida, keyin esa, tog‘alarining ko‘magida Xiva madrasalarida tahsil olgan. Zargarlik, tabiblik hunarlarini puxta egallash barobarida, qishloq maktabida bolalarga saboq bergani bois hamma uni Mulla Davlatmamat deb chaqirgan.

U navqiron yoshida o‘z ovulidan Orazgul ismli go‘zal qizga uylanadi. U bilan o‘n besh-o‘n olti yil baxtli turmush kechirib, bir etak farzandni voyaga yetkazadi. Ozodiyning Abdulla, Matsafo, Maxtumquli ismli o‘g‘illari, Zubayda ismli qizi bo‘lgani haqida ma’lumotlar bor. Mulla Davlatmamat ikkinchi o‘g‘liga alohida mehr qo‘ygani bois unga otasining ismini bergan. Shoirning katta farzandlari dehqonchilik va savdo-sotiq yo‘lidan ketishdi.

Biroq, ajal shoirning ayoli Orazgulni bu olamdan juda erta olib ketdi. Bolalari yosh edi. Qiyinchiliklarni mardonavor qarshi olgan mulla Davlatmamat esa maktabdorlikdan, yozish-chizishdan bo‘shamasdi. Bo‘sh paytlarida o‘tkinchi karvonlardan, bir paytlar Xivada birga o‘qigan do‘st-yoronlardan olgan kitoblarni tizzasi ustiga qo‘yib muk tushgancha mutolaaga berilar, ezgulik, insoniylikka da’vat etuvchi misralarni bitardi.

Mulla Davlatmamat turkiy tillar bilan bir qatorda fors va arab tillaridan ham yaxshi xabardor edi. 1740-yilda o‘zining salkam besh ming misradan iborat pandnoma asari “Va’zi Ozodiy”ni yozib qoldirdi.

Maxtumquli ham ota izidan borib, o‘z davrining eng taniqli so‘z ustalaridan biriga aylandi. Markaziy va Kichik Osiyo, Eron, Xitoy va Hindistonning ko‘plab shaharlarida bo‘ldi. Qayerda bo‘lmasin, Maxtumquli bir umr otasining pand-nasihatlariga, o‘gitlariga amal qilib yashagan.

Ayolining vafoti yetmaganidek, ikki katta o‘g‘li Matsafo bilan Abdullaning dog‘i ham Mulla Davlatmamatning qaddini bukib qo‘ydi. Bir safar tijorat maqsadida yo‘lga otlangan aka-uka shu ketganicha uyga qaytmadi. Ota umrining oxirigacha shu ikki farzandining yo‘liga ko‘z tikib yashadi.

1760-yilning 22-mart kuni Davlatmamat Ozodiy oltmish yoshida dunyodan o‘tdi. Maxtumquli umrining oxirida o‘zini otasining yoniga qo‘yishlarini vasiyat qilgan. Ayni paytda bu ikki buyuk shoirning qabri Eronning Guliston viloyati hududidagi qadimiy “Oqto‘qay” qabristonidadir. Ota va o‘g‘il Ozodiy va Maxtumquli o‘zlaridan bebaho asarlar, o‘lmas she’rlarni meros qilib qoldirishdi.

**Rustam JABBOROV,**
**filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori**

IBRAT

# O‘ZBEK OTA



**Ko‘p yillar burun, ajoyib kunlarning birida O‘zbekiston xalq artisti Obid Yunusov bilan gurunglashib qolgandim. Obid aka “Parvona” spektaklidagi O‘tkuriy rolini nechog‘li qiyomiga yetkazib o‘ynaganini yosh-u qari yaxshi biladi. Shu bois bu odam ko‘p yillar davomida teatrda ham, ko‘cha-ko‘yda ham, yig‘in-ma’rakalarda ham “O‘tkuriy” bo‘lib yurdi.**

Shu gurungda Obid akaning otasi Yunus Rajabiy haqida gap ketdi. Buyuk san’atkor Yunus Rajabiy 16 nafar farzandli oilada tug‘ilib o‘sgan va o‘zi ham 12 nafar farzandni tarbiyalagan. Ularning orasida mamlakatga mashhur ulug‘ insonlar bor.

Suhbat orasida Obid akaning bir hikoyasi menga qattiq ta’sir qilgan. Bu hikoya ushmundoq:

“Parvona” spektaklining premyerasi bo‘ladigan bo‘ldi. Men otamni taklif qildim. Otam premyeraga bordi. Spektakl qizg‘in olqishlar ostida yakunlandi. Tomoshabinlar tarqab, odam siyraklashib, o‘zimiznikilar qolgach, fikrini bilay deb otamning qoshiga bordim. Otam zalda stulga cho‘kib, g‘amgin o‘tirardi. Shunday kulgili tomoshadan so‘ng u kishining g‘amgin o‘tirgani meni ajablantirdi. Men so‘z aytishga botinolmay jim turganimda otam: “Rejissyorni chaqiringlar”, dedi.

Ko‘p o‘tmay rejissyor bir necha ijodkorlar hamrohligida zalga kirib keldi. Otam unga qattiq tikilib: “Spektaklning bir joyida bittasi Obidga qarab “Haromi!” deb baqiradi. Shu so‘zni olib tashlanglar”, dedi. Rejissyor hovliqib tushuntira ketdi: “Yunus ota, axir bu spektakl, badiiy asar-ku. Bu so‘z sizning o‘g‘lingizga emas, bir firibgarga, ya’ni, O‘tkuriyga qaratib aytilyapti”. Otam birdan ovozini ko‘tarib gap qaytardi: “Men buning spektakl ekanini bilmaymanmi? Nima bo‘lganda ham, Obidga qarab bu so‘zni aytishmasin. Agar shu so‘zni olib tashlamasanglar, Obid bu rolda boshqa o‘ynamaydi!”

Oxirgi gapni aytayotganida Obid Yunusovning ovozi titrab ketdi.

**Eshqobil SHUKUR**

4-SENTYABR – ABU RAYHON BERUNIY TAVALLUD TOPGAN KUN

# DAHOGA EHTIROM

## yoxud Isajon Sultonning “Abu Rayhon Beruniy” romani xususida

**Olis moziy ko‘zgusida aks etib turgan turli voqea-hodisalar ichidan eng ibratga munosibini topa olish, ko‘ra bilish va bugungi kun nuqtai nazaridan baholab, badiiy talqin etish oson ish emas. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sulton keyingi yillarda milliy tariximiz ummoniga misli g‘avvos bo‘lib sho‘ng‘idi, ummon tubidan dur-u javharlar jamlash bilan mashg‘ul bo‘ldi. “Alisher Navoiy” romanini yozib, hazrat hayoti va ijodiga qayta nazar soldi. “Bilga Xoqon” romani orqali turkiylarning shonli o‘tmishi, turkona so‘z imkoni va kuchini ko‘rsatdi. Yaqin o‘tmish, ya’ni XX asr boshlaridan “Ma’suma”ni topdi. Bularning barchasi tahsin va ilmiy-nazariy tadqiqqa munosib asarlardir.**

Yozuvchining yangi romani – “Abu Rayhon Beruniy”ni o‘qib, uning ming yillar naridagi davr muhitining oltin sahifalarini, insoniyat boshidan kechgan yaxshi-yomon kunlarni, allomalar va sultonlar xarakterini sinchiklab o‘rganganiga guvoh bo‘lish mumkin. Adib bu romanida avvalgilarga o‘xshamagan kompozitsion qurilish yo‘lini, o‘zgacha bir bayon usuli va tasvir manerasini tanladi. U romani markaziga turli hikoyatlar, voqea-hodisalar roviysi Abu Fazl Rayyoniyni joylashtiradi. Bu obraz romanning boshidan to oxirigacha muallif niyatining ijrosini ta’minlashga xizmat qiladi. Barcha syujet chiziqlarini birlashtiradigan bu obrazning niyati, kitob yozishga bo‘lgan orzusi juda mahobatli bir pafosda beriladi: “Bu asarimda izzatga sazovor turli kishilardan hikoya qilgan bo‘lsam-da, barchasining podshohi bir kishidir. U – inson bolalariga Yaratganning o‘ta noyob ne’mati bo‘lmish bilim qopqalarini ochgan, kishi tafakkur tufayli yuksala olishini ko‘rsatgan Abu Rayhon Muhammad al-Beruniydir”. Yozuvchining asl-cho‘ng niyati ham aynan shunday. Zero, bu roman tufayli bugunning o‘quvchisi Abu Rayhon Beruniy shaxsiyati naqadar buyuk bo‘lganini anglab oladi. Ikkinchidan, allomaga zamondosh g‘oziy sulton Abulqosim Mahmud ibn Sabuktegin G‘aznaviy siymosi ham romanning markaziy obrazlaridan biri sanaladi. “Olimlar va hukmdorlar qilgan ishlarni bir risolaga joylash deyarli mumkin bo‘lmagan ish. Biroq, bu ikki zot hayotidagi falak hodisalari bir-biriga shunchalar chirmashib ketganki, lol qolmay ilojingiz yo‘q”. Haqiqatan ham, tarixda o‘tgan ulug‘larning insoniyat oldida qilgan bebaho xizmatlarini ko‘rib-bilib odamning aqli hayron qoladi. Zero, Isajon Sultonning mazkur romani shu hayrat va havaslar hosilasidir.

Tarixiy zamon va makonda harakatlanayotgan shaxslar – asosiy obrazlar ko‘pincha o‘z holini o‘zi bayon qiladi va aksar vaziyatlarda voqelik mazmuni Beruniy bilan G‘aznaviyga bog‘lanadi. Har bir qavm, deylik, sobiylar, harroniylar, zardushtiylar, moniylar, mazdakiylar, Bani Hanifa, Zavzan ahli, oq kiyimlilar, qarmatiylar – bular bayonida adib, tabiiyki, Abu Rayhon Beruniy kitoblariga suyanadi. Beruniy ilm o‘rganmoqchi, o‘z ta’biri bilan aytganda “o‘zini butlamoqchi”. Mol-dunyo bilan emas, ilm-fan bilan o‘zini tanimoqchi va o‘zligini, mavjudligini olamga tanitmoqchi. Yozuvchi inson o‘zini butunlashtirish falsafasini tabiatga qiyoslab: “Suvni har qanday sathga to‘ksang ham, o‘yiq-kemtigini to‘ldirib, tekis sath hosil qiladi, ya’ni o‘zini butlab oladi”, deb ifodalaydi. Shunga monand yosh Beruniy: “Mening vujud quvvatim yetarli, lekin bilim quvvatim oz bo‘lgani sababli ikkisini tenglab, butlamoq istadim”, degan ulug‘ va ezgu niyatini bildiradi. Butunlashtirish, ya’ni vujud quvvati bilan bilim quvvatini tenglashtirish – bu insonning tanasi bilan ruhiyati darajasi xususida qayg‘urish demakdir.

Isajon Sultonning yangi romani, qurilishi va rivoya usuliga ko‘ra boshqa asarlaridan farqlanadi. Alohida olingan voqea-hodisalarni o‘zaro bog‘lash va zarur o‘rinlarda jiddiy, xolis baholashni adib Abu Fazl obrazi zimmasiga yuklaydi. Adib tarixiy voqealarni, al-Ma’mun zamonasi, Sulton Mahmud G‘aznaviy yurishlari va janglarini, uning o‘g‘li al-Ma’sud davrlaridagi tarixiy hodisalarni Abu Fazl tasavvuri va tafakkuri elagidan o‘tkazadi. Romandan juda ko‘plab personajlar o‘z hasbi holidan so‘zlaydi va umummaxrajda Beruniy obrazi takomiliga yordam beradi.

Romanda mumtoz sharq nasri uslubiga xos jihatlar kuzatiladi. Deylik, bir sahifada Mansur ibn Iroq: “Johillar bilan aslo do‘st tutinma, sal narsaga seni nodon va dahriy deb e’lon qilib yuborishlari hech gap emas. Aks holda, boshingga Abu Nuosning kuni tushadi” degach, Abu Rayhonning: “Abu Nuos boshiga kelgan voqea qanday ekan?” degan savoli ortidan alohida syujetga ega bo‘lgan voqea keladi. Yoki “falon voqeani hikoya qilib berishimni so‘radi”, “voqeani so‘zlab berishdi”, “boshidan o‘tgan bir voqeani aytib berdi” kabi birikmalar davomi hikoyalarga ulanadi. Sulton Mahmud G‘aznaviy bilan bog‘liq epizodda “bu voqeaning tarixi quyidagicha” deyilgan gapdan keyin o‘quvchi zukko Ayoz va Sulton Mahmudga tegishli mashhur hikoyatni o‘qiydi. Har holda bunday uslubiy o‘ziga xoslik tarixiy roman ufqlarini kengaytirishga yordam beradi.

Shu bilan birga Isajon Sulton boshqa asarlarida qo‘llagan ba’zi poetik usullar an’anasini bu romanida ham davom ettirdi. Kitobxonni muayyan muhitga olib kirish va o‘sha davrga xos narsa-predmetlarni asil nomi bilan qatorasiga sanash yo‘sini bu romanida ham bor. Bir misol “Ray. Abu Zarr hikoyasi” bo‘limida bitta voqea keladi. Beruniy bozorda oltin uzukni sotmoqchi bo‘ladi. Zargarga ko‘rsatadi. Zargar mol taniydigan odam. Uzuk qay yurtda, qachon va qaysi usulda yasalganigacha biladi. Ular o‘rtasida gurung bo‘ladi. Shunda Beruniy zargarga narsa-predmetlar hajmi, uzunligi yoki vaznini o‘lchashda nimalardan foydalanishlari haqida savol beradi. Raylik zargar shunday deydi: “Biz tilla va kumushni misqol va dirhamda, javohirni qirotda, g‘allani man yoki botmonda o‘lchaymiz. Matoni tirsak va qulochda, uzun masofani farsaxda, qisqa uzunliklarni angushtda hisoblaymiz”. Bunday atama, tushuncha va detallar yozuvchi uchun muhim. Keyingi sahifalarda “la’l, yoqut, zabarjad, sadaf, marvarid, aqiq, feruza” boshqalar qatorasiga sanaladi. Beruniy zakosi *“shaffof bo‘lmagan sariq toshlar uchun aqrabiy – chayon rangi, afsuriy – eshak tishining rangi, falfaliy – qalampir rangi. Yashil va moviy toshlar eng oz tuslanishga ega. Zulmoniy – to‘q yashil, rayhoniy – rayhon bargi tusi, silkiy – lavlagi bargi rangi, alas – suli niholi rangi, zaytuniy – zaytun, rined – dafna yaprog‘i rangi”* kabi juz’iy farqli ranglarni ajratib sanab berishida ham ko‘rinadi.

Bunday tushunchalarning tafsilotlari roman haqiqatini yuzaga chiqaradi. Beruniy yashagan muhit ob-havosini, borib ko‘rgan shaharlari tasviri, boshqalar bilan uchrashuvlarini bunday tafsillar reallashtiradi. O‘quvchi zehnini asar ichiga va o‘tmish zamon ijtimoiy-madaniy koloritiga olib kiradi. Ammo bunday detallarda xatoliklar bo‘lmasligi lozim. Isajon Sulton shu e’tibordan sezgir, ogoh, hushyor. Bilib yozadi, bilganlardan so‘raydi. Bilmaganini yozmaydi. Haqiqatni yozish – ijod haqiqatiga sadoqatdan dalolatdir. Yaxshi yozuvchi bo‘lish uchun iymon mezoni muhim, vijdon so‘rovi zarur. Ayni damda yozuvchi hayotning turli sohalarini tugal biladigan olim ham bo‘lmog‘i lozim.

Asarni yozish uchun Isajon Sulton Beruniy asriga oid ilmiy-tarixiy manbalarni va allomaning qator kitoblarini o‘qigani aniq. Romanda g‘arb-u sharq olimlarining nomlari bilan birga asarlari tilga olinadi va bu kitoblar Beruniy mutolaalari yoki biror kashfiyotiga uzviy bog‘lanadi. Romanda ilm qadriga, olim fazliga jiddiy e’tibor qaratiladi. Deylik, dengizda kemalarga chiqqan savdo ahliga yo‘l ko‘rsatuvchi o‘laroq berilgan Mofanna bilan bog‘liq rivoyat vositasida yozuvchi ilm qadrini baland ko‘taradi. Olim bilganini omi bilolmaydi. Bilganlar bilan bilmaganlar hech qachon teng bo‘lmaydi. Ammo bilmaganlarning bilganlar obraziga kirib olishlari, o‘zlaridan ulamo yasab targ‘ib-tashviqqa berilishlari esa – bu hamma zamonlardagi ko‘zbo‘yamachi kimsalarning eng mudhish fojiasidir.

Isajon Sulton ayni chog‘da shu paytgacha ko‘rsatilmagan tarixiy davrdagi fazilatlar, deylik Sulton Mahmud G‘aznaviyning musulmon hukmdor ekaniga, Beruniyning islomiy tushunchasi va olimligi zakosiga diqqatni qaratadi. Beruniy bu romanda chin musulmon, chin olim, chin, hakim, chin inson o‘laroq gavdalanadi. Nazarimda, bizning milliy tarix ulkan badiiy asarlarda haqqoniy, o‘z mohiyati va mezonlariga muvofiq yoritilish yo‘liga sekin-asta kirib bormoqda. Isajon Sulton yozgan roman shu e’tibordan ham qadrli.

Eralarga, asrlarga, yillarga cho‘zilgan bepoyon tarix o‘lchovsiz, bahaybat, benihoya muhtasham oyinadir. Isajon Sulton shu oyinaning bir parchasini o‘quvchilarga taqdim etdi. Bu tarix oyinasida Beruniy yulduzi charaqlab turibdi. Romanni o‘qigan o‘quvchi Abu Rayhondek allomaning asarlariga, insoniy fazilatlariga qiziqadi, fikr yuritadi, savollar girdobiga tushadi. Beruniy bir yuz ellikdan ortiq asar yozgan. Ulardan o‘ttizdan ko‘pi bizgacha yetib kelgan. Hali shu kunga dovur olimlar Beruniyning ilm-fandagi xizmatlarini tugal o‘rganib chiqqanlari yo‘q. Beruniyni tugal anglaganlari yo‘q. Hali shu kungacha dunyo ilm ahli tomonidan alloma asarlariga yangi sharhlar yoziladi. Hali shu kunga qadar Beruniy borlig‘idan taralgan ma’rifat yog‘dusidan insoniyat bahra oladi. Buning nomi manfaatli ilm deyiladi. Manfaatsiz ilmdan panoh so‘raladi odatda. Ilm ham, hunar ham egasi va boshqalarga foyda keltirmog‘i lozim.

Davr maishatiga, ilmiy muhitiga, olimlari tabiatiga mos ravishda yozilgan romanda ilm maqsad va foydasi nima degan savolga ham javob beradi. Beruniyning olimlik martabasi ulug‘langan bu romanda o‘quvchi ko‘zi o‘ngida buyuk allomaning ulug‘vor siymosi gavdalanadi. Aslida chin olimlik bilan quruq vaysaqilik ham, kibr-havodan yasalgan manmansirash ham kelisha olmaydi. Olimlik – davralar to‘rida o‘tirish mashg‘uloti emas. Olimlik – bu insoniyatga xizmat. U – adashganlarni hidoyat yo‘liga boshlash amaliyoti. Olimlik bilgan sari hech narsa bilmaslik ortida turgan kamtarlikdir. Olim haqiqat va adolat qo‘riqchisi bo‘ladi, u misli chiroq, porloq bir yulduz. Shu chiroq o‘chsa, shu yulduz so‘nsa, odamlar qorong‘ilikda, zulmatda yo‘lsiz qoladi. Zulmatga qarab yurgan kimsa yo‘l topolmay adashadi. Olimlar odamlarni to‘g‘ri fikrlashga, shukrga, o‘z vujudiga nazar solishga o‘rgatadi. Olimlik – bu olamga kelib ketish mohiyati va bu yorug‘ dunyodagi chekli umr mazmunini anglashdir. Beruniy haqidagi roman o‘quvchini shunday tafakkurga chorlab turadi. Asardagi bosh qahramonning Abu Ali ibn Sinodek tabib yoki zamon hukmdorlari bilan bo‘lgan muomala-munosabatlari ham ibratga munosib. Bu asar olimning qalbini anglashga, ustidagi mas’uliyatni va boshidan kechgan mashaqqatlarni tugal tasavvur qilishga yordam beradi. Haqiqiy va manfaatli ilmning nima ekanini o‘quvchi biladi. Alloh o‘zi xohlagan bandalariga iste’dod va pokiza tafakkur ne’matini in’om etgan. Roman Beruniy siymosi orqali o‘shal buyuk ne’matdan foydalanish sabog‘ini beradi.

Beruniy aforizmlari roman mazmunini boyitadi. Adib shu usulda o‘z asarini hikmat shodalari bilan bezaydi. Hikmatli sahifalar o‘quvchini hushyor torttirib, ongining allaqaysi puchmoqlarida mudrab yotgan iste’dod hujayralarini bezovta qiladi. Va shu zaylda roman o‘z adabiy-tarixiy missiyasini bajaradi. Bu hayotiy hikmatlar amaliy tajribalar ortidan paydo bo‘lgan tarix haqiqatlari, ayni damda, Isajon Sulton adabiy-falsafiy tafakkurining mevalari hamdir.

Roman bir davr va bir muhitda yashagan, biri qo‘liga qalam va yana biriga qilich tutgan,





biri bulut va yana biri yomg‘ir bo‘lgan, biri olov va yana biri tuproq bo‘lgan ikki insonning hayoti, faoliyati, kurashlari, jang-u jadallari to‘g‘risida. Bu Abu Rayhon Beruniy va Sulton Mahmud G‘aznaviydir. Beruniyning “Sulton Mahmud bilan ko‘p tortishardik, u jo‘mard va tanti kishi edi, mening so‘zlarimning haq ekanini bilsa, o‘z xatosini tan olardi”; “Sulton Mahmud har narsadan rostgo‘ylikni va mardlikni ustun qo‘yardi” kabi baholari romanda har jihatdan asoslanadi. Isajon Sulton o‘z asarida millat manfaati nuqtai nazaridan xalqimiz tarixiga to‘g‘ri ko‘z, xolis nazar bilan qarashdan kelib chiqqan haqqoniy, hozirgacha mavjud bo‘lmagan badiiy talqinni beradi.

Ushbu romani bilan Isajon Sulton zamondoshlarimizni Beruniy fenomenini idrok etishga chorlaydi. Shuningdek, “Abu Rayhon Beruniy” romanchilikdagi an’analar, roman nazariyasi yillar o‘tgan sari o‘zgarishga uchrashini, bu adabiy janr mohiyatiga ko‘ra yangilanib turishini va roman doimo navqiron ekanini anglashga yordam beradi.

**Bahodir KARIM,**
**filologiya fanlari doktori,**
**professor**

**ILDIRGI:** ***O‘zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultonning “Abu Rayhon Beruniy” romani Hamza O‘zturchi tarjimasida turk o‘quvchilari qo‘liga yetib bordi. Kitob Turkiyaning “Ketebe” nomli nufuzli nashriyotlaridan birida chop etildi. Zero, turkiy xalqlarning umumtarixida o‘tgan ulug‘ allomalar hayot yo‘li va ilmiy-ma’rifiy faoliyatini teran tasavvur qilishda bu roman barcha turkiy xalqlar ma’rifattalab yoshlarining sevimli kitobiga aylanadi, albatta.***

MUTOLAA




**Dunyo adabiyotida Andrey Platonov “falsafiy masallar ustasi” sifatida e’tirof etiladi. “Akademnashr” nashriyotida uning o‘zbek tiliga yangi tarjima qilingan ikki asari chop etildi. Adibning “Jon” qissasini “Baxt izlash afsonasi” deb aytish mumkin. Asar haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan, bo‘rttirilgandek ko‘rinsa-da, favqulodda ajoyib. Butun bir xalq qanday qilib shunchalik qashshoqlikka duchor bo‘lishi, ibtidoiy jamiyatga tushib qolishi mumkin? Ular xuddi kimsasiz orolga tushib qolgan baxtiqaro insonlar kabi o‘zlarini yopiq dunyoda yashashga mahkum etgandek tuyuladi. Ulardan shahardagi har qanday tilanchi ham nisbatan yaxshiroq, to‘kisroq, mazmunliroq hayot kechiradi. To‘satdan kimdir shu baxtiqaro odamlarning oldiga kelib, “men sizga baxt beraman” deb ularga baxt taklif qilsa...**

# OQ VA QORA E’TIQOD SALTANATI

Ammo bu g‘alati qavm unga ishonmaydi. Ular Chig‘atoyevni yolg‘onchi deb o‘ylaganlari uchun emas, aksincha, baxt nimaligini allaqachon unutganlari uchun shunday qilishadi.

Ammo bu yerda g‘alati tuyulsa-da, favqulodda yashash istagi bor. Aftidan, bu qavm allaqachon o‘limni bo‘yniga olgan, ajal ular uchun qo‘rqinchli emas. Ammo yashash istagi ham ularga begonamas. Ular buni o‘zlari istab-istamay amalga oshirishadi. Chig‘atoyevda esa yashash ishtiyoqi kuchli. U bu yerda vahshiylikni ko‘radi. Odamlar cho‘lda bir necha kunlab qo‘ylarning orqasidan yugurishga, jonivorlarning so‘yilgan tomog‘idan iliq qon ichishga va xom go‘shtni pishirmasdan iste’mol qilishga tayyor. Har qanday zamon va makonda ham, har qanday sharoitda ham yashab qolishga intilish odamning refleksidir, balki. Asarning bizga bog‘liq jihati, voqealar bizning o‘lkamizda – Xiva xonligi hududida yuz beradi. Bu qavm ichida turkman ham, qirg‘iz ham, o‘zbek ham, qozoq ham bor. Lekin ular “jon” deb ataladi. Bu yerda ma’lum bir simvolik ishoralar bor. Ehtimol, yozuvchi beshga bo‘lib yuborilgan qardosh xalqlarning zavolidan xavotir olgandir.

“Jon” asarini o‘qish davomida kitobxon mualliflik filmlarini tomosha qilganday bo‘ladi. Qandaydir mavhumlik bor, go‘yo hech narsani tushunmaysiz, lekin shu bilan birga syujet ko‘ksingizni g‘ijimlab, nafas olishingizga yo‘l qo‘ymaydi, tanangizdagi eng nozik asab tolalarini uzib yuborgandek bo‘ladi. Bu kitobni o‘qish kitobxon uchun qiyin – asarning ichiga kirib o‘qisangiz, o‘pkangizga qum tiqilib qolganday bo‘ladi, qulog‘ingiz ostida bo‘g‘izlangan odamning nochor xirillashi eshitilib turadi. Yolg‘izlik. Vayronagarchilik. Umid yo‘q. Ammo ma’no chuqur. Teran metafora yaqqol ko‘rinib turadi – jon qavmi saodat izlab sahro bo‘ylab sarson-sargardon kezadi, odamlar adashgan qo‘ylardek chor tarafga tarqalib ketadi, birov holsizlanib yiqiladi, birov o‘ladi... Omon qolish uchun qon kerak – u suv o‘rnini bosadi. Bitikni tiriklikning rangli surati deb atash mumkin. Asar ruhiyatiga kirish uchun kitobxonga jasorat kerak.

Andrey Platonovning “Xandaq” qissasi ham o‘zbek tilida chop qilindi. Bu asarni mutolaa qilish ham kitobxon uchun oson bo‘lmaydi. Avvalo, yozuvchining murakkab uslubi, qolaversa, tarjimon Sharifjon Ahmedovning ham zargarona, ham zich tarjimasi o‘quvchining miyasini zo‘riqib ishlashga majburlaydi. “Xandaq” – falsafiy asar. Unda “Jon” asariga hamohang motivlar ham bor. Yozuvchining yuksak badiiy tafakkuri va chuqur mushohadalari kitobni shunchaki mutolaa qilishga yo‘l bermaydi. Asar ko‘p qatlamli, unda antiutopiya va satira elementlarini ilg‘ash mumkin.

Qahramonlar bir-biriga o‘xshaydi. Tushkun, allaqachon ertangi kunidan umidini uzgan bu insonlar o‘zlarining baxtsiz hayoti kelgusi avlodlar uchun yorug‘ kelajak olib keladi, deb ishonishadi. Xandaq detali – ularning o‘y-fikrlari, ruhiy holatini ifodalaydigan badiiy timsol. Voshchev, Jachev, Kozlov, Chiklin va Safronov obrazlari xarakteridagi ba’zi o‘xshashliklarni aytmaganda, ular bir obrazning turli soyalaridek taassurot qoldiradi. Asarda nisbatan optimistroq, shu bilan birga ancha to‘kis yashaydigan obraz – Pashkin. Prushevskiy esa garchi mayda amaldor bo‘lsa-da, o‘z armonlari va qayg‘usi ichida yemirilib borayotgan odam. Aynan Prushevskiy obrazi menga ko‘proq ma’qul bo‘ldi.

Qahramonlar kapitalizmni qora, kommunizmni oq deb bilishadi. Ular endigina barpo bo‘lgan “qizil saltanat” va kommunizmning istiqboliga ishonishadi. Ammo ularning orzulari o‘zlari qaziyotgan xandaq kabi tobora chuqurlashib, pastga qarab “o‘sib” boraveradi. Ular nihoyatda tushkun, biroq o‘ta mulohazakor. Bu holatni Platonov paradoksi deyish mumkin: zohiran chuqurlikdagi voqelik va yuksaklikdagi mohiyat. Muallifning falsafiy qarashlari qahramonlarga teng taqsimlangan, ya’ni ular o‘z nutqida muallifning badiiy g‘oyasini to‘la-to‘kis ifoda etishadi.

Asarda aynan bir makon va zamon kishilari tamsil etilgan, deyish qiyin. Unda har qanday usti yaltiroq, ichi qaltiroq tuzum oxir-oqibat zavolga mahkum ekanligi eslatiladi. Inson ertasidan umid qilmasa, o‘z hayotining ma’nisizligidan ezila boshlasa, beixtiyor xandaq qaziy boshlaydi. Bu xandaq qazuvchini o‘zi bilan yerga olib ketadi, lekin uning o‘rnida mustahkam bino barpo bo‘lishi mumkin. Ha, faqat mumkin. Reallikda esa bu xandaq Platonov qahramonlari qazigan xandaq kabi behuda mehnatning uvoli bo‘lmasligiga kafolat yo‘q.

Platonovning tili murakkab. Iosif Brodskiy bu asarni boshqa tilga o‘girib bo‘lmaydi, deb yozgan ekan. Biroq Sharifjon Ahmedov o‘zbek tilining boy imkoniyatlarini ishga solib, asarni mohirona tarjima qilishni uddalabdi. Hatto mutolaa boshida ba’zi jumlalar g‘aliz ko‘rinadi. So‘zlarni bir-biriga ulay olmaydi kishi. Ammo o‘ziga xos jumlalar, ko‘zga notanish birikmalarning “mazasi” asta-sekin chiqib boraveradi. E’tiborlisi, tarjimon juda ko‘p “chalajon” so‘zlarga yangi nafas berib, ularni “tiriltirgan”. Buning ortida, shubhasiz, har qanday olqish va e’tirofga munosib katta mehnat yotibdi.

**Xurshid ABDURASHID**

AKS SADO

# TARIXNING VAZIFASI NIMA?




**Men taniqli adib Muhammad Alining “Jadid” gazetasining shu yil 9-avgust kungi sonida e’lon qilingan “Tariximizni teran bilaylik” sarlavhali maqolasini o‘qib, ancha o‘ylanib qoldim. Chindan ham, biz tariximizni yaxshi bilamizmi, undan zarur saboq olamizmi?**

**Avval maktab, so‘ng institutda ta’lim olgan chog‘larimni esladim. Arifmetika, ona tili, geografiya darslari qatori tarix fani va shunga yarasha darslik ham bo‘lar edi. Maktabda, institutda va undan keyin ham bir xil tarix. Umumiy tushunchalar. Bosqichma-bosqich, formatsiyalar – ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodalizm, kapitalizm va sotsializm... Butun jahon tarixi shunday. Turgan-bitgani qolip. Bu – insoniyat tarixiga kommunistik nuqtai nazardan qarash mahsuli edi. O‘zbeklar tarixi ham shunday, birgina farqi – biz kapitalizmni ko‘rmay, feodalizmdan to‘g‘ri sotsializmga sakrab o‘tganmiz. Bu hodisa xalqimizning buyuk g‘alabasi, g‘ururlanishga arzirlik yutuq sifatida taqdim qilinar edi. Chunki kapitalizm – “yomon”, “o‘ta yomon”, “chirib borayotgan” jamiyat.**

Sotsializm esa insoniyat rivojining cho‘qqisi bo‘lgan saodatli, farovon jamiyat sifatida talqin etilardi. Go‘yoki biz ana shu cho‘qqida edik. Faqat odamlar hayron edi, haqiqatan shunday-mi? Balki jar yoqasidagi qoyada turgandirmiz, degan ichki shubha ham yo‘q emas edi. Buni ilg‘aganlarning ko‘pchiligi qatag‘on qilindi, surgun etildi.

Ikkinchi bir tushuncha bu – “xalq tarixning yaratuvchisidir” degan ertak. Isyonlar, janglar, inqiloblar, qirg‘inbarot kurashlar... Tarix shulardangina iborat. Insonlar, shaxslar va qahramonliklarning tarixi yo‘q edi. Faqat bir istisno: birgina millat bahodirlari va bolsheviklarning qahramonliklari tilga olinar va ular abadiylashtirilgan edi.

Bizda, o‘zbeklarning tarixida alplar, qahramonlar yo‘q: Alp Er To‘nga, To‘maris, Spitamen, Mahmud Torobiy, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Madaminbek, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Munavvar qori, Fayzulla Xo‘jayev, Akmal Ikromovlar faoliyati millat tarixiga kiritilmadi. Buni bizga ravo ko‘rishmadi.

Yana bizga “savodsiz”, “qoloq”, “davlatchiligi yo‘q”, “o‘zini o‘zi eplolmaydigan ibtidoiy, tuzem xalq” degan yorliqlarni yopishtirishdi. Hatto, o‘tgan asrning 70–80-yillarida o‘zimizda kamol topgan akademiklardan biri “Bu xalq qachonlardir ajdodlari yaratgan yuksak madaniyatga loyiq emas” degan safsatani duch kelgan joyda, hech ikkilanmay aytib yurdi. Millatimizni yerga urish shunchalik ham bo‘ladimi? Chunki bizning tariximiz hukmron mafkura nuqtai nazaridan yozilgan edi-da. Bu mustamlakachilik siyosatining in’ikosi edi. U millatimizning ongi, shuuriga singdirib yuborildi. Oqibatda biz na haqqoniy tariximizni va na qahramonlarimizni bildik.

Yuz yildan ko‘proq vaqt davomida aksariyat kitoblarda soxta tarix yozildi. Esimda, 1994-1995-yillar edi, respublika Oliy Attestatsiya komissiyasining rahbari tarix sohasi bo‘yicha “fan nomzodi”, “fan doktori” ilmiy darajasi uchun yozilgan dissertatsiyalarning naq 97 foizi Chor Rossiyasi va sovetlar davri tarixiga bag‘ishlanganini afsus bilan qayd etgan edi. Ming yilliklar tarixi xalq xotirasidan uzoqlashtirildi, o‘rniga so‘nggi 130 yillik soxta tarix singdirildi. Shu bois ko‘pchilik yurtdoshlarimiz tarix ilmidan ancha bexabar bo‘lib qoldi.

Xo‘sh, bugun shu soxta tarixdan saboq olib bo‘ladimi? Yo‘q, albatta.

* * *

Ochig‘i, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Alining dard bilan yozgan “Tariximizni teran bilaylik” maqolasini katta hayajon bilan o‘qidim. Maqolada tilga olingan fikrlar qalbimni larzaga soldi.

Miloddan avvalgi II va milodiy III asrlarda dunyoga dovruq solgan Kushonlar saltanati bunyodkorlarini negadir o‘zimizning tarixchilar ham eroniy xalqlarga mansub, deb hukm chiqarishdi. Vaholanki, ular o‘zlarini turkiy hukmdorlar an’anasiga ko‘ra “yabg‘u”lar deb atashar edi.

Muhammad Alining yaxlit tariximizni temuriylar, shayboniylar, ashtarxoniylar davri sifatida bo‘lib-bo‘lib o‘rganish shonli o‘tmishimizni, millatimizni kamsitishdan o‘zga narsa emas, degan fikriga to‘liq qo‘shilaman. Mening nazarimda, yuqoridagi sulolalarning barchasi, qolaversa, miloddan avvalgi II ming yilliklar so‘ngida shakllangan shahar-davlatlar, Avesto zamonida yuzaga kelgan Xvarayzem, Baxdi, Sug‘ud kabi davlatlardan tortib, to hozirgi davrdagi Yangi O‘zbekiston davlati ham o‘zbek davlatchiligi an’analarining yaxlit solnomasi hisoblanadi. Yurtimiz hududida eng qadimgi davrlardan to hozirgacha ro‘y bergan voqea-hodisalar xalqimizning yagona tarixini tashkil qiladi.

* * *

Muhtaram adibimiz o‘z maqolasida tariximizga, tilimizga munosabat bilan bog‘liq eng og‘riqli savolni o‘rtaga tashlagan. “Chig‘atoy” atamasi bilan bog‘liq holat – millat g‘ururiga tegishli masala. Ma’lumki, Chig‘atoy Chingizxonning ikkinchi o‘g‘li edi. Chingizxon 1219-yili Turonzaminga bostirib kirganida Sulton Alouddin Muhammad Xorazmshoh boshqargan Xorazm saltanati Sharqdagi eng yirik, qudratli, rivojlangan davlatlaridan biri hisoblanar edi.

Ajdodlarimiz mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi ayovsiz jang qildi, mislsiz qahramonliklar ko‘rsatdi, lekin taqdir taqozosi bilan yovning qo‘li baland keldi. 1227-yili Chingizxon vafot etdi. Lekin u o‘limidan oldin mo‘g‘ullar an’anasiga ko‘ra, cheksiz poyonsiz saltanatini to‘rt o‘g‘li – Jo‘ji, Chig‘atoy, O‘qtoy va Tuluyga taqsimlab berdi. Chig‘atoyga Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Movarounnahr, janubiy-sharqiy Xorazm va Amudaryoga tutash hududlar in’om etildi. Biz, o‘zbeklar uchun Chig‘atoy yurtimizni g‘orat qilgan, xarobaga aylantirgan, ajdodlarimizni ayovsiz qirgan bosqinchidir.

Muhammad Ali Toshkent shahrining kindigida joylashgan Chig‘atoy nomidagi mahalla va tashkilotlarni tilga olib, shunday yozadi: “... nima uchun Chig‘atoyxon vafotidan buyon salkam sakkiz yuz yil vaqt o‘tsa ham uning nomi hali-hanuz O‘zbekiston toponimikasida mavjud? Joylar uning nomi bilan atalgan, uning nomidagi mahallalarda yashaymiz?..

O‘ylab ko‘raylik: Chig‘atoyga tariximizdagi qaysi xizmatlari uchun shundoq e’zoz-u hurmat ko‘rsatilishi kerak? Chingizxonning o‘g‘li ekani uchunmi?”

Bu savol xaqli ravishda tuman, shahar hokimliklari va toponimik komissiya a’zolariga qaratilishi lozim. Vaholanki, ushbu nomlarning huquqiy tus olishi yaqin-yaqinda, mustaqilligimizning ilk yillarida yuz bergan.

Esimda bor, men o‘sha yillari Samarqand shahar toponomik komissiyasiga a’zo edim. Jarayonlar qizg‘in o‘tardi. Tarixiy nomlarning qaytganidan g‘ururlanar edik, baxtiyor bo‘lardik. Axir o‘shanda yuzlab, minglab begona nom va atamalardan xalos bo‘lgan edik-da.

Bundan-da achinarlisi, turkiy til, turkiy adabiyot Chig‘atoy tili va adabiyoti deb e’lon qilinishi bo‘ldi. Buni sovet olimlari, tarixchi va adabiyotchilari amalga oshirdi. Muhammad Ali bu jarayonni chuqur tahlil qilib berdi. Yurtimiz, xalqimiz, uning adabiyoti va tili “chig‘atoy” termini bilan atalishi bu – o‘zbek millatiga nisbatan bepisandlik, uni badnom qilishdan o‘zga narsa emas.

Hozir respublikamiz bo‘yicha toponomik komissiyalar ishini jonlantirib, qonun doirasidagi talab va takliflarni amaliyotga tatbiq qilish, milliy g‘ururimizni ko‘taradigan, tarbiyalaydigan haqqoniy tariximizni yaratishga jiddiy e’tibor qaratish zarur.

Bu borada shuni aytmoqchimanki, aql va mehnat ko‘magida har qanday jozibali yangi g‘oya, dasturni yaratish mumkin, lekin uni amaliyotga, hayotga tatbiq qilish o‘ta og‘ir, mashaqqatli ishdir. Buning uchun kuchli iroda va jur’at talab qilinadi.

* * *

Xo‘sh, tarix nima uchun kerak?

Nikkola Makiyevelli bundan olti yuz yil muqaddam o‘zining “Hukmdor” asarida shunday yozgan: “Bizning barcha xatti-harakatlarimizning ustozi tarix, deb aytishadi, ayniqsa, knyazlarning... Dunyo hamisha o‘xshash hissiyotdagi hukmdorlar va xizmatkorlardan iborat bo‘lgan”. Sohibqiron Amir Temur esa o‘zining “Tuzuk”larida “eshitishimcha”, “yana eshitganmanki”, “shuni ham eshitdimki”, “tajribamdan o‘tmishkim” iboralarini bot-bot ishlatgan. Bu – tarixga murojaat sifatida ibratlidir.

O‘tmishimizda shonli davrlar ko‘p bo‘lgan: miloddan avvalgi III-II ming yilliklarda shakllangan Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining ajralmas qismi sifatida O‘zbekistonda ilk tamaddun (Turon, Oks sivilizatsiyasi deb ham ataladi) shakllandi. Dastlabki shaharlar, voha davlatchiliklari yuzaga keldi.

Miloddan avvalgi I, milodiy III asrlarda ajdodlarimiz ilk bora qudratli hokimiyat barpo etdilar: Kushonlar o‘sha paytda dunyoga egalik qilgan to‘rtta saltanatdan biri, ya’ni Rim, Parfiya va Xan davlatlari qatorida turar edi. Yanayam aniqrog‘i, Kushonlar iqtisod, madaniyat va san’at sohasida dunyoda peshqadam edi. IX–XI asrlarda dunyoda yuz bergan Birinchi Renessans ham aynan bizning yurtimizdan boshlangani bejiz emas. O‘shanda ajdodlarimiz jahon ilm-fanining yetakchilari bo‘lishgan.

XIV–XV asrlarda Amir Temur saltanati dunyo tarixi rivoji yo‘nalishini yangi o‘zanga solib yubordi. Yurtimizda tijorat, bozor iqtisodiyoti rivojlandi, Ikkinchi Renessans yuz berdi, alal oqibat uning ta’sirida Yevropada uyg‘onish davri boshlanib, zamonaviy ilm-u fan, kapitalistik munosabatlar shakllandi.

XX asr so‘ngi va XXI asr boshida xalqimizning o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi, Yangi O‘zbekistonning shiddat bilan rivojlanishi, Uchinchi Renessans poydevori qurilishi butun dunyoga ibrat bo‘lmoqda.

Biz mana shunday olamshumul yutuqlardan har qancha g‘ururlansak arziydi. Shonli tarix xalqimizga milliy g‘ururlanish hissini beradi. Bunday hissiyotni yoshlarimizga bog‘cha, maktab yoshidan singdirish lozim. Shuning uchun tariximizning ushbu davrlari chuqur, ko‘tarinki ruhda o‘qitilishi lozim. Buning uchun avvalo tarix darsliklari isloh qilinishi zarur.

Qahramonliklar tarixi biror joyda, na maktabda, na universitetda o‘qitilmaydi, ibrat qilinmaydi. Afrosiyob – Alp er To‘nga, To‘maris, Spitamen, Mahmud Torobiy, Temur Malik, Namoz botir, Dukchi Eshon va boshqa qahramonlarga biror bir xotira belgisi ham qo‘yilmagan. Darsliklarda ularning shaxsiy qahramonliklari tafsilotlari yo‘q. Va, hatto darsliklarda Amir Temur, Jaloliddin kabi ulug‘ ajdodlarimizning mislsiz qahramonlari haqida “kurashdi”, “g‘olib chiqdi” kabi umumiy axborot berish bilan kifoyalanilgan.

Maktablar yoshlarimizning ongi va qalbida aynan qahramonlik hissiyotlarini uyg‘otish va shu orqali el-yurt boshiga ish tushganda ko‘kragini qalqon qiladigan avlodni tarbiyalashi lozim. Men “Millat maktabda tug‘iladi” degan fikrni ko‘p gapirib yuraman. To‘g‘ri, bunga bog‘chani ham qo‘shmoq lozim. Aynan shunday, universitetlarda ham, akademiyalarda ham emas. Buning uchun ana shu talabga javob beradigan tarix darsliklari, manbalar, materiallar yaratilmog‘i lozim. Manbalar yetishmasa badiiy asarlarga – hikoya, rivoyat, she’r va romanlarga murojaat qilmoq lozim.

* * *

She’riyat, adabiyot, ilm, madaniyat, san’at, sport, kashfiyotlar kabi ko‘pdan-ko‘p omillar milliy g‘ururni shakllantirishga xizmat qiladi. Yaqinda Parij Olimpiadasini butun sayyoramiz ahli katta qiziqish bilan tomosha qildi. O‘zbek sportchilari ushbu bahslarda chinakam ma’noda mo‘jiza ko‘rsatishdi. Ana shu olamshumul musobaqada o‘zbek qizi Diyora Keldiyorova g‘olib bo‘lib, ajib qahramonlik namoyish etdi. Bir lahzada milliardlab insonlar Diyoraning qaysi mamlakatdan ekanligini, qaysi millatning qizi ekanligini aniqlashga kirishib ketdi. Shu ma’noda, u O‘zbekistonni dunyoga tanitdi. Bir lahza millatimizni, butun turkiy dunyoni birlashtirdi, g‘ururini, or-nomusini yuksakliklarga ko‘tardi.

Agar o‘zbek ayollarining umumiy qiyofasini aniqlash lozim bo‘lsa, shunday tanlov o‘tkazilsa, men hech ikkilanmasdan Diyora qizimizni tanlagan bo‘lar edim. Chunki uning baxtiyor chehrasi allaqachon jahonda o‘zbek xotin-qizlarining timsoliga aylanib ulgurdi.


* * *

Xulosa qilib aytganda, oqsoqol yozuvchimiz Muhammad Ali “chig‘atoy” atamasi haqida fikr yuritish asnosida bugun ko‘pchiligimizni o‘ylantirayotgan achchiq haqiqatlarni tilga oldi. Bu muammolardan xalos bo‘lish uchun hammamiz birgalikda bosh qotirishimiz lozim. Axir, xalqimizning or-nomusi va g‘ururini yuksakka ko‘tarish yurtimizdagi barcha ziyolilar – siyosatchilar, tarixchilar, ijodkorlar, sportchilar, olim-u fozillarning yagona maqsadi hisoblanadi.

Illo, g‘ururi baland millatgina buyuk ishlarga qodir bo‘ladi!

**Temur SHIRINOV,**
**tarix fanlari doktori, professor,**
**O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi**

JADIDLAR



# “ITTIFOQ-U G‘AYRAT-U HIMMAT KERAK...”

Shoir Karimbek Kamiy (1865–1922) she’rlaridan birida:

*O‘qung ash’ori bikru fikrni*
*aylang tasarrufkim,*
*Atorud tashlasun qo‘ldin*
*qalamni ko‘kda hayratdin,*

– degan edi. Bu bilan shoir zamondosh ijodkorlar oldiga fikrni o‘zgartiradigan, qotib qolgan tafakkurni isloh qiladigan mutlaqo yangi – bokira she’r (“ash’ori bikr”) talabini qo‘ymoqda. U shunday ohorli va bokira bo‘lsinki, hatto Atorud (Sharq mifologiyasida qalamkashlar homiysi) hayratdan qalamini tashlab yuborsin. Ushbu she’r Kamiyning 1894-yilda tartib bergan qo‘lyozma bayozida keladi. Bu payt shoir hali o‘ttizga ham to‘lmagan edi. Uning nazdida, adabiyotni yangilash kerak va adabiyot millat tafakkurini o‘zgartirishi lozim. E’tibor bersangiz, keyinchalik maydonga chiqqan jadid adabiyotining bosh tamoyili ham ana shunday edi.

Professor G‘ulom Karimov o‘zining “Muqimiy” monografiyasida (1970) shoir Kamiy haqida ma’lumot bera turib, shunday yozadi: “1905-yildan so‘ng Kamiy ijodida burilish ro‘y berdi, u jadid adabiyoti ruhida she’rlar yozishga kirishdi va umrining oxirigacha shu “adabiy lager” pozitsiyasida qoldi”. Miyon Buzruk Solihov o‘zining “O‘zbek adabiyotida millatchilik ko‘rinishlari” (1933) kitobida Kamiyning “Soldi beiliqliq xatolarg‘a” deb boshlanuvchi muxammasidan parcha keltirib, uni “jadid adabiyotining go‘zal namunalari”dan biri sifatida sanagan edi. Professor Sharif Yusupov esa “Ma’rifatparvar shoir Karimbek Kamiy” maqolasida shoirni ma’rifatparvarlik va jadid adabiyoti orasidagi muhim ko‘prik, deb ataydi. Darhaqiqat, Kamiyning jadid matbuotidagi she’r va maqolalari uni jadid shoiri deyishimizga to‘la huquq beradi.

Shoirning 1906-yil 23-fevral “Taraqqiy” gazetasida chop etilgan “Himmat va g‘ayrat” maqolasi bunga bir dalil. “Ortiq taassubning, jaholatning davri kechdi”, deb boshlanadi maqola. Bu so‘zlar beshinchi yil voqealari Kamiyda katta umid uyg‘otganidan darak beradi. Ayni shu maqola bilan Kamiyning ma’rifiy qarashlarida yangi davr boshlandi: *“Biz kecha-kunduz tahsili ulum va maorifa sa’y va g‘ayrat edalim. Dinimizi, qavmiyat va millatimizi muhofizi uchun lozim – o‘qiyalim, cholishalim”.* Bu so‘zlarda Kamiy ma’rifatchiligining maqsad va vazifalari o‘z aksini topgan. Demak, o‘qish, ya’ni ma’rifat hosil qilishdan maqsad: diniy butunlikni saqlash, milliy o‘zlikni himoya qilish. Bular esa jadid adabiyotining bosh g‘oyalari edi.

O‘tgan asrning 10-yillariga kelib, Kamiy jadidona g‘oyalarga yanada yaqinlashdi. 1909-yilning 12-mayida Toshkentda jadidlar tomonidan “Jamiyati xayriya” tashkil topdi. Qirq bir moddalik nizomga ega bo‘lgan bu jamiyat tepasida Toshkent jadidlarining faollaridan Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘ja o‘g‘li kabi millat oydinlari turdilar. Jamiyatning oldiga qo‘ygan eng asosiy maqsadi – millatning maishiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash. Bu oson ish emas. Bu, eng kamida, maktablar ochish, kitoblar chop etish, matbuotni yo‘lga qo‘yish degani. Masalaning nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy tomoni ham bor. Hamma narsa borib sarmoyaga taqaladi. Usiz barcha gaplar quruq, butun harakatlar behuda. Bu masalada jamiyatning umidi faqat boylardan edi. Ularning xayr-saxovatisiz hech ish qilib bo‘lmaydi. Biroq boylarga ham maqsadni anglatish kerak. Milliy hamiyatiga ta’sir etish, agar zarur bo‘lsa, islomiy burchini eslatish lozim. Kamiyning quyidagi satrlari mana shunday jadidcha g‘oyalarni amalga oshirish maqsadida yozilgan edi:

*Xush demish bu so‘zni bir shirinmaqol,*
*Jon qulog‘ina, Kamiy, albatta, ol.*
*Chunki ayyomi saxovatdur bukun,*
*Ro‘zi irshodi inoyatdur bukun.*
*Bu isha aqdomi jam’iyat kerak,*
*Ittifoq-u g‘ayrat-u himmat kerak.*
*Har biri infoq qilsa bir diram,*
*Jam’ o‘lur har oyda bir ganji umam.*
*Davlati millat o‘lur haddin ziyod,*
*Mamlakat ma’mur o‘lur, ahbobi shod...*
*Chun senga sarvat ato aylab Xudo,*
*Sulsi mol-u davlating aylar judo.*
*“Majlisi xayriya”ya taslim qil,*
*Daftari ganjinaya tarqim qil...*

Karimbek Kamiy o‘z davrida, garchi jadidlar avlodidan yoshi ulug‘ va an’anaviy she’riyatning davomchisi deb qaralgan bo‘lsa-da, jadid ma’rifatparvarlarining da’vatlariga “labbay” deb javob berdi. “Samarqand” gazetasining 1913-yil 16-avgust sonida Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Ne uchun iltifot etmaydurlar?” maqolasi chop etiladi. Gazeta muharriri mazkur maqolada “milliy jaridaga, milliy xizmatga ahamiyat bermaydilar”, deb “qalamlik turkistonli”lardan shikoyat qiladi. Tasavvur qiling, “G‘arbdagi bahri Xazardan boshlab, sharqdagi G‘ulja va Koshg‘argacha, shimoldagi Qozog‘istondan boshlab janubdagi Afg‘oniston”gacha bo‘lgan xalqlarning manfaatini ko‘zlab “Turkistonning o‘rta shevasinda” ne-ne mashaqqatlar ila birgina gazeta ta’sis etilsa-yu, bu “o‘n million xalqg‘a millat uchun yozguvchi o‘n muharrir” (muallif) topilmasa. Behbudiyning oh tortib, arzi hol etganicha bor. Muallif ginaxonlikni Toshkentdan boshlaydi. “Masalan, – deb yozadi u, – 15 ming musulmon nufuslik va necha dasta muharrir, shoir va musannifi bor va bir necha jarida chiqargan (...) Toshkent shahridan (...) bir satr bo‘lsun bir shay (narsa) kelgani yo‘q”. Aynan mana shu so‘zlar shoir Kamiyning “E’tizor” (uzrnoma) yozib, Behbudiydan uzr so‘rashiga sabab bo‘lgan edi. Maktub sarlavhadan keyin shunday davom etadi:

*“Fazilatlu ma’rifatparvar afandim!*

*Bir qoch (necha) oy o‘lurkim, muhtaram “Samarqand” gazetasi tarafingizdan ba’zi ahboblarimiza rasul o‘lunur (yuborib turilar). Olib, kamoli ehtirom-la mutolaa o‘lunur. Lekin, bir tarafdin kasrat ashg‘ol (yumushning ko‘pligi), digar tarafdin xastalik mone’yi tab hol (sihatga to‘siq) o‘lub, gazetangizi tabrigi banga muyassar o‘lmadi. Ma’zur tutmog‘ingizi rajo (umid) edaram. Al-’uzru ’inda kiramin-nasi maqbul (Karamli zotlar uzrni qabul qilguchidirlar). “Samarqand” gazetasini tabrik edaram. Ne uchun tabrik va davomi rajo etilmasun, holbuki, har kun olama nur sochan va ahvoli olam-u vuqu’otin (voqealarini) bildiran g‘azetadur. Nuqsonimizi ko‘rub tanbeh va kamolimizi ko‘rub tabrik edan-da g‘azetadur. Taraqqiyotimiza xidmat edan, millatimizi nuri ilm-u ma’rifat ila tanvir (munavvar) va zulmat, taassub-u jaholatdin taxlis (xalos) edan-da g‘azetadur. Inshoallohi taolo, mundin so‘ngra maqolalar yozib turmagi o‘zima lozim edaram.*

*Shoir Kamiy Toshkandiy”.*

Maktub “Samarqand”ning 1913-yil 3-sentyabr sonida e’lon qilingan. Matn tagida shunday yozuv bor: “Idora: Mursalotingiz ma’al-mamnuniyat darj o‘lunub (yuborganingiz mamnuniyat ila chop etilib), iltifotlarina tashakkur qilinur”. Kamiy xatidan keyin to‘rt son chiqib, “Samarqand” to‘xtatiladi. Shu bois gazetada shoirning biror bitigini uchratmadik. She’rlari esa aksariyat yana shu muharrir tomonidan chop etilgan “Oyina” jurnalida nashr qilingan.

Darhaqiqat, 10-yillarga kelib, Kamiy ma’rifiy she’rlarining mavzu-mundarijasi yanada kengaydi. Ma’rifatning yoniga milliy-ijtimoiy, axloqiy mavzular qo‘shildi. Kamiy bunday she’rlarida millatning ma’naviy qashshoqligi, axloqiy tubanliklari, haqir-u faqirligidan so‘z ochadi. Ittifoqning yo‘qligi, nifoqning qo‘li balandligidan nadomatlar chekadi. Shoir bularning barchasini, jadidcha qarashlardan kelib chiqib, ma’rifatsizlikdan, ilmga rag‘batning sustligidan deb bildi:

*Qilmag‘ay ilm sari kimsa nazar,*
*Xalq behuda kasba mayl aylar,*
*Qolmadi hech qadri ilm-u hunar,*
*Ko‘rdi beilm qavm necha zarar,*
*Dilki, millat g‘amidin qon o‘ldi,*
*Doimo sudimiz ziyon o‘ldi.*

Muallif mavjud vaziyatga to‘g‘ri tashxis qo‘yadi. Darhaqiqat, aynan ma’rifatning yo‘qligidan “doim sudimiz ziyon o‘ldi”. Nainki foydaning ziyonga aylangani, balki millatning to‘g‘ri yo‘ldan ozgani-yu, balolar girdobida qolganligi, birovlar qo‘liga qaramligi-yu, mol-u mulkidan mosuvo bo‘lgani – barcha-barchasi, Kamiy nazdida, ilmsizlik oqibatidan:

*Ilmsizliq chiqordi tuz yo‘ldin,*
*Oldi qoplab balo o‘ng-u so‘ldin,*
*Bizda na qoldi sarvat-u puldin,*
*Ketti mol ila mulkimiz qo‘ldin –*
*G‘arbiylar, ya’ni O‘vrupolarg‘a.*

Bu dalillarning barchasi shoir Karimbek Kamiyning jadidona g‘oyalarni baralla kuylagan ijodkor ekanligiga guvohlik beradi. Milliy uyg‘onish davri adabiyotimizda bunday shoirlar talaygina. Ularni o‘rganish, ijodlarini atroflicha tadqiq etish va milliy uyg‘onish yo‘lidagi xizmatlarini munosib baholash bugungi kunning dolzarb masalalaridandir.

**Olim OLTINBEK,**
**filologiya fanlari nomzodi,**
**dotsent**

# HURRIYAT UCHQUNLARI

Boshlanishi 1-sahifada.

Uning hayoti haqidagi ushbu anketa o‘sha yilning 29-sentyabrida imzolangan.

Qahramonimiz hibsga olingan vaqtda O‘zbekiston SSR Ichki Ishlar xalq komissarligi Buxoro sektori 3-bo‘linmasi boshlig‘i yordamchisi, davlat xavfsizligi serjanti lavozimida faoliyat ko‘rsatayotgan edi. Inog‘om Mo‘minov akasi Muhammad Mo‘minovning aksilinqilobiy tashkilot a’zosi ekanligini bilgani holda uni fosh qilishdan bosh tortgan. Aksincha, u bilan mustahkam aloqada bo‘lgan.

1937-yil 18-oktyabrida Leonov, Friman va Dosenkolar tomonidan tergov qilingan Inog‘om Mo‘minov o‘z javobida akasi Muhammad Mo‘minovning ukasiga qilgan nasihatidan mana bu parchani keltirgan: *“Moskvaga o‘qishga bor, o‘zbek xalqiga*



**Muhammad Mo‘minov**

*yordam berishing uchun ko‘p o‘qishing kerak. Poytaxtga borib mustamlakachilar orasida bo‘lib, ulardan o‘rganasan, keyinchalik ularning o‘rnini egallaysan. Ular bizning dushmanimiz, butun Turkistonni o‘z qo‘llariga olmoqchilar. Lekin biz bunga yo‘l qo‘ya olmaymiz. Vaqt kelib hokimiyatni qo‘lga olamiz. Mustamlakachilarga qarshi kurashga, xalqimizni ozod qilishga tayyorgarlik ko‘r”.*

Inog‘om Mo‘minov 1928-1929-yillarda O‘rta Osiyo ishchilar fakultetida o‘qigan davrida mustamlaka hududlardan kelgan talabalar bilan do‘stlashib, ular bilan birgalikda yashirin guruh tuzgan. Mustamlakachilar ishonchiga kirishga muvaffaq bo‘lgan. 1929-yilda OGPU Sharq bo‘limi xodimi Rahimov uni ishga taklif qiladi. Bu taklif haqida Muhammad Mo‘minovga aytganida akasi Inog‘omning ishlashiga rozilik bildiradi. Qahramonimiz OGPUda ish boshlaydi. Shu bilan birga OGPU doimiy vakilligi huzuridagi O‘rta Osiyo kurslarida o‘qiydi. O‘qishni bitirgach, Zomin rayonida faoliyat boshlaydi.

1935-1936-yillarda Inog‘om Mo‘minov Samarqand okrugi militsiya sektori rahbari lavozimida ishlaydi. Uning davrida Samarqand shahridan bironta odam aksilinqilobiy jinoyatlarda ayblanib qamalmagan.

U aholi orasida ocharchilik to‘g‘risida uydirma ma’lumotlar tarqatganlikda, sovetlarning siyosatidan norozi bo‘lganlarning tarafini olganlikda ayblanib, Ichki ishlar xalq komissarligi tezkor vakili, davlat xavfsizligi katta leytenanti Freyman va tezkor xodim Rimskiy ishtirokida 1937-yil 29-sentyabrda hibsga olingan. Uning uyida tintuv o‘tkazilgan. Fuqarolik pasporti, harbiy guvohnomasi, 25 varaqdan iborat turli yozishmalar daftari, qoralamalar, turli manzillar yozilgan xatlar ashyoviy dalil sifatida olib qo‘yilgan.

1937-yil 8-oktyabrda Davlat xavfsizligi leytenanti Dosenko ayblov xulosasini taqdim etgan. Bunda Inog‘om Mo‘minov, katta akasi Ahmad Mo‘minov tomonidan aksilinqilobiy ruhda tarbiyalanganligi, Inog‘om GPU (Davlat siyosiy boshqarmasi)ga ishga kirayotgan vaqtda uning yana bir akasi Muhammad Mo‘minov 1927-yil 7-noyabrda Moskva ko‘chalarida aholining tinch namoyishida, trotskiychilarning aksilinqilobiy yig‘inlarida ishtirok etganligi, quloqlarni sinf sifatida tugatish, paxta hosildorligini oshirish haqida tuhmatona targ‘ibot olib borganligi uchun O‘zSSR Jinoyat kodeksining 60, 66-1, 68-moddalari bilan ayblangan.

Inog‘om Mo‘minovning qamoqdagi kamerasiga Shoberdi Tursunovni maxsus xufiya sifatida kiritishadi. Undan oziq-ovqat va sanoat tovarlarining yetishmovchiligi haqida so‘ralganda bunday holatning asosiy sababi joylarda olib borilayotgan mustamlakachilik siyosati tufayli paxta ko‘p ekilib, g‘alla kam ekilayotganligida ekanligini batafsil tushuntiradi.

1937-yil 6-dekabrda qo‘yilgan ayblov xulosasida Inog‘om Mo‘minovning 1925-yildan aksilinqilobiy tashkilot a’zosi ekanligi, 1929-yil ataylab OGPUga ishga kirganligi, mahalliy boylarni qatag‘ondan saqlab qolganligi, Afg‘oniston foydasi uchun josuslik qilganligi, aksilinqilobiy tashkilotlarga yangi a’zolarni jalb etganligi kabi ayblar qo‘yilib, O‘zSSR Jinoyat kodeksining 57-1, 64 va 67-moddalari bo‘yicha ayblanadi. Shuningdek, unga qarshi qo‘shimcha ayblovlar ham bildirilgan. Qahramonimizning akasi Muhammad Mo‘minov 1919-1922-yillarda jadidlarning “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi sifatida ayblangani ta’kidlanib, aka-ukalar otuvga hukm etilgan. Aniqrog‘i, 1938-yil 4-oktyabrdagi SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining sayyor sessiyasida akasi Muhammad Mo‘minov, shu yilning 9-oktyabrida esa Inog‘om Mo‘minov sud qarori bilan otuvga hukm etilgan.

Qo‘limizda Oliy sud harbiy kollegiyasining 1938-yil 9-oktyabrdagi sud yig‘ilishi qarori. Uni harbiy sud raisi Alekseyev boshqargan. Sudda harbiy huquqshunos Zaytsev va 1-rangdagi harbiy yurist Bolderev, kotib harbiy yurist Batner qatnashgan. Sudda Inog‘om Mo‘minov O‘zSSR Jinoyat kodeksining 51-1, 64 va 67-moddalari bilan ayblanayotgani ma’lum qilinadi. Sud zaliga sudlanuvchi Inog‘om Mo‘minov taklif qilingan. Sudlanuvchiga ayblov xulosasi o‘qib eshittiriladi. Uning suddagi huquqi va sud tarkibi tanishtiriladi.

Shundan so‘ng O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi Buxoro sektori 3-bo‘lim boshlig‘i o‘rinbosari davlat xavfsizligi serjanti Inog‘om Mo‘minovga u Jinoyat kodeksining 57-1, 64 va 67-moddalari bo‘yicha ayblanayotgani e’lon qilinadi. Sudda Mo‘minov 1925-yildan buyon sovetlarga qarshi bo‘lgan millatchilik, qo‘zg‘olonchilik, keyinchalik terrorchilik tashkiloti safida yashirincha faoliyat ko‘rsatganlikda ayblangan. Unga o‘z oldiga amaldagi hokimiyatni ag‘darib, O‘zbekistonda burjua davlatini tuzish, unga yangi shaxslarni safarbar qilish, kurashning terrorchilik uslublarini VKP(b) va Sovet hukumatiga nisbatan qo‘llashni maqsad qilgan ushbu tuzilmalarni qo‘llab-quvvatlash aybi ham taqalgan. Buning ustiga, Inog‘om Mo‘minovning millatchilarni fosh etishdan bosh tortgani, keyinchalik chet el konsullari xodimlari bilan aloqada bo‘lganligi, ularga davlat sirlari haqida ma’lumotlar berib turganligi da’vo qilingan.

Mo‘minov Jinoyat kodeksining yuqorida zikr etilgan moddalari bo‘yicha aybdor deb topilib, SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi tomonidan oliy jazo – otuvga buyurish va unga tegishli buyumlarni musodara etishga qaror qilinadi.

Ana shu mash’um voqeadan 20 yil o‘tib, aka-uka Muhammad va Inog‘omning mushtipar onasi 1957-yil 27-mayda sobiq Ittifoq Ministrlar Soveti raisi G.M. Malenkovga xat bilan murojaat qiladi. Unda shunday yozilgan: *“Men, Tojixon Inomxo‘jayeva hozirgi vaqtda 75 yoshdaman. 8 nafar farzandli bo‘lganman. Ulardan 5 nafari o‘g‘il, 3 nafari qiz edi. Turmush o‘rtog‘im 47 yil hunarmandchilik bilan shug‘ullangan. Katta o‘g‘lim Muhammad Mo‘minov Moskvadagi yuridik universitetni bitirgan. 1937-yilning martida qamoqqa olingan, undan keyin boshqa o‘g‘lim Inog‘om ham qamoqqa olingan. Natijada oilamiz og‘ir ahvolga tushib qoldi va ikki nafar qizim vafot etdi. Ikki nafar o‘g‘lim urushga ketdi. Ulardan biri – Muxtorjon Mo‘minov Volokolamsk shahri yaqinidagi janglarda halok bo‘ldi. Yana bir askar o‘g‘lim urushdan nogiron bo‘lib qaytdi.*

*1938-yili o‘g‘lim Muhammad Mo‘minovdan xat oldim. U xatida uni qiynashayotganini, nogiron holatda ekanligini, uyga qaytishdan umidini uzganligini, insoniylik qiyofasini yo‘qotganlar orasida qolganini bildirgan. Ikkinchi o‘g‘lim Inog‘om Mo‘minovdan hech qanday xabar yo‘q.*

*Farzandlar dog‘i, ayriliq azobi, tuhmatlar ta’siriga chidagan erim o‘g‘illarining pok nomi oqlanishiga ko‘p harakat qilib, oxiri yuragi chidamay vafot etdi. Uning vafoti oldidan yozgan xatini sizlarga yuborganman. Menga o‘g‘illarim haqidagi ma’lumotlarni bersanglar. Tojixon Inomxo‘jayeva, Namangan shahri, 25-oktyabr ko‘chasi, 26-uy.”*

Ma’lumki, Stalin vafotidan so‘ng qatag‘on qilinganlarni reabilitatsiya qilish jarayoni boshlangan. Mazkur masala 1956-yil fevralida bo‘lib o‘tgan KPSS XX s’yezdida ko‘tarilgan. Ittifoq miqyosidagi reabilitatsiyani o‘tkazish hay’ati tarkibida O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti birinchi kotibi Nuriddin Muhitdinov va O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi Xadicha Sulaymonova ham bo‘lgan. Tarkibda ularning bo‘lishi o‘zbekistonlik qatag‘on qurbonlarining reabilitatsiya jarayoni sobiq Ittifoqning boshqa mustamlaka hududlariga nisbatan ertaroq va tezroq yuz berishida muhim ahamiyat kasb etgan. Ana shu insonlarning sa’y-harakatlari bilan O‘zbekistonda 40 mingga yaqin “xalq dushmani” sifatida otuvga hukm etilgan yoki uzoq muddatlarga surgun qilingan yurtdoshlarimiz reabilitatsiya qilingan va oqlangan.



**Inog‘om Mo‘minov**

Nuriddin Muhitdinov o‘z esdaliklarida reabilitatsiya qilish komissiyasi a’zosi, akademik Xadicha Sulaymonovaning fidoyiligi haqida shunday yozgan edi:

*“Qatag‘on qilinganlar hujjatlarining har birini huquqshunoslar ishtirokida ko‘rardik. Ba’zan tergov, sud materiallari, ayblov xulosasi, sud hukmini asoslash va boshqalarni o‘rganishda Jinoyat kodeksi moddalari, ayrim terminlarni yaxshi tushunmasdik. Ana shunda menga, butun guruh a’zolariga Xadicha katta yordam ko‘rsatdi, chunki u shu guruhning doimiy maslahatchisi edi...*

*Ushbu voqealarni eslar ekanman, ular atrofida Xadicha haqida ham shularni aytmoqchiman: Akmal Ikromov va Fayzulla Xo‘jayevning butun hujjatlarini yig‘ib Moskvaga borib, bosh prokuror Roman Rudenkoning kabinetida o‘tirganimizda, uning o‘rinbosari va ikki xodim papkalarni ko‘tarib kirishdi va muhokama boshlandi.*

*Meni zavqlantirgan va faxrlantirgan narsa shu bo‘ldiki, ularning har bir savoliga javob qaytarishda, hujjatlarga baho berishda yoki ularning gumon qilgan joylarini tushuntirishda Xadicha o‘zining olimligi, donoligi, qonunlarni yaxshi bilishi va mustahkam irodasini ko‘rsatdi. Uzoq Andijondan chiqqan bir o‘zbek qizi shunday mashhur prokurorni ham, uning mas’ul xodimlarini ham qoyil qoldirdi.*

*O‘sha yillari O‘zbekistonda “xalq dushmani” deb otilgan yoki uzoq muddatga surgun qilingan kishilarni oqlash kerak edi. Bu tarixiy ishga Xadicha Sulaymonova ham o‘ziga xos hissa qo‘shdi”.*

*Ana shu reabilitatsiya qilinganlardan biri Inog‘om Mo‘minov bo‘lgan. U 1958-yil 22-fevralda O‘zSSR Oliy sudi tomonidan reabilitatsiya qilindi.*

1937-1938-yillardagi “Katta terror”da qatag‘on qilingan aka-uka Muhammad va Inog‘om Mo‘minovning hayoti va taqdiri haqidagi bor haqiqatni keng va batafsilroq ochib berishga qaratilgan izlanishlarimiz davom etayotir. Kelgusida ayni izlanishlarimiz davomida aniqlangan ma’lumotlarni yana e’tiboringizga havola etamiz, degan umiddamiz.

**Rustambek SHAMSUTDINOV,**
**Dilshod HOMIDOV,**
**Andijon davlat universiteti tuzilmasidagi**
**Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi xodimlari**

XOTIRA AZIZ

## QATAG‘ON QURBONLARI

**(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).**

**Abdulla qori Kattashayxov** – Namangan rayoni, O‘rta Mashhad qishlog‘idan. Millati o‘zbek. Madrasa mullavachchasi, uylanmagan. Aksilinqilobiy, bosmachi, qo‘zg‘olonchi tashkilotning a’zosi. Yigitlarni tashkilotga jalb qilish uchun targ‘ibot olib borgan. Nosirxonto‘raning jangovar guruhidagi uch yigit, faol yordamchisi Mulla Madraimni o‘z uyida yashirgan. O‘zSSR JK 58–67-moddasi hamda RSFSR 58-2, 58-11-moddalaridagi jinoyatni sodir etganlikda ayblangan.

**Fayziboy Usmonov** – Namangan rayoni, Kulqo‘rg‘on qishlog‘idan. Masjidda so‘fi va imomlik qilgan. Dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Uylangan, savodli, xotini tarafdan Dadaxon Eshonning qarindoshi. Paxta topshirmaganligi uchun sudlangan. 1929-yil kuzida Sovet hokimiyatiga qarshi qurolli qo‘zg‘olon ko‘tarish to‘g‘risida qaror qabul qilingan Sumsar yig‘ilishida Dadaxon Eshon bilan birgalikda ishtirok etgan. O‘zSSR JK 58–67-moddasi va RSFSR 58-2, 58-11-moddalaridagi jinoyatlarni sodir etganlikda ayblangan.

**Isroilxo‘ja Sarimsoqxo‘jayev** – Kosonsoy rayoni, Buloqboshi qishlog‘idan. Millati tojik. Nosirxonto‘raning shogirdi, uylangan, sudlanmagan. Nosirxonto‘ra va Istambekni Chotqoldan Avliyo-Otaga qurolli qo‘zg‘olon ko‘tarish masalalarini hamkorlikda muhokama qilish uchun olib borgan. Nosirxonto‘raning topshirig‘i bilan Dadaxon qo‘rboshiga Kosonsoy shahriga hujum qilish taklifini bildirgani borgan. 1930-yilning bahorida Nosirxonto‘ra bilan yana bog‘langan va uning topshiriqlarini bajarishga tayyorligini ma’lum qilgan. O‘zSSR JK 58–67-moddasi hamda RSFSR 58-2, 58-11-moddalaridagi jinoyatlarni sodir etganlikda ayblangan.

**Mulla Tojiboy Yo‘ldoshev** – Kosonsoy shahridan, millati tojik. Nosirxonto‘raning shogirdi, diniy soha xodimi. Uylangan, sudlanmagan. Nosirxonto‘raning topshirig‘iga binoan Samarqanddagi masjidlarda 18 nusxadan iborat Sovet hokimiyati va kommunistlarga qarshi qaratilgan muqaddas urushga chaqiriqlardan iborat xitobnomalar tarqatgan. Kosonsoy shahriga hujum qilish masalasi muhokama qilingan yig‘ilishda ishtirok etgan. O‘zSSR JK 58–67-moddasi va RSFSR 58-2, 58-11-moddalaridagi jinoyatni sodir etganlikda ayblangan.

**Allaxon Abdullaxo‘jayev** – Kosonsoy rayoni, Kosonsoy shahridan. Millati o‘zbek. Diniy xizmatchining o‘g‘li, imom, uylangan, sudlanmagan.

**Abdulahad Nishonboyev** – Kosonsoy rayoni, Uzun qishlog‘idan. O‘zbek. Mullavachcha, uylanmagan, sudlanmagan. Aksilinqilobiy tashkilotning Kosonsoy yacheykasi a’zosi bo‘lgan. Kosonsoy shahriga hujum qilishdan oldingi yig‘ilishda ishtirok etgan. Hujum kuni ularga militsiya va ovchilar ittifoqi a’zolarini qurolsizlantirish topshirilgan. O‘zSSR JK 58–67-moddasi va RSFSR 58-2, 58-11-moddalaridagi jinoyatni sodir etganlikda ayblangan.

**Hamroxo‘ja Mallaxo‘jayev** – Yangiqo‘rg‘on rayoni, Bekobod qishlog‘idan. O‘zbek, yer-suv islohoti davrida mol-mulki musodara qilingan. Boy, savodli, uylangan. Namanganlik mashhur eshon Akromxonto‘raning ukasi. Madumar guruhini faollashtirish bo‘yicha Nosirxonto‘raning vakili, Kosonsoydagi hujumlarda, Zarkentning Qizilolma hududidagi janglarda ishtirok etgan. Ranjit yaqinidagi jangda birlashgan guruhning tor-mor etilishidan keyin yashirin faoliyatga o‘tgan. Aksilinqilobiy tashkilot uchun ikkita uchotar miltiq bilan Nosirxonto‘raga qo‘shilmoqchi bo‘lgan. O‘zSSR JK 78-moddasi hamda RSFSR 59-3-moddasidagi jinoyatni sodir etganlikda ayblangan.

**Abbosxon qori Azizxo‘jayev** – Kosonsoy shahridan, millati tojik. Madrasada o‘qigan, qori, uylangan, sudlanmagan. Kosonsoy shahriga hujum qilishdan oldingi yig‘ilishda ishtirok etgan. Ranjit jangiga qadar guruhlar tarkibida bo‘lgan. Qizil askarlar bilan bo‘lgan barcha jang va to‘qnashuvlarda ishtirok etgan. O‘zSSR JK 78-moddasi va RSFSR 59-3-moddasidagi jinoyatlarni sodir etganlikda ayblangan.

**Nigoraxon AKBAROVA,**
*tadqiqotchi*

**(Davomi kelgusi sonda).**

TARIX VA TAQDIR

## “Ortga qaytish yo‘q”

### Oqila kelinning aytganlari

**Farzandi tuhmatdan zulm ko‘rsa, onaning ko‘zyoshlari sel bo‘ladi, bunday uqubatga bardosh berish qiyin. 1954-yili, mustabid tuzum davrida bir kampirning o‘qimishli o‘g‘li “Stalinni haqoratladi, mahalliy anjumanda “daho”ga tahsin aytmay chetlab o‘tdi” degan tuhmat bilan yigirma uch yilga qamaladi. Avvaliga yon-veridagilar bu musibatli xabarni keksa kampirga bildirishmaydi. Safarga ketdi, dam olishga ketdi, ishlari ko‘p ekan, degandaygaplar bilan ovutib yurishadi.**

Onaning ko‘ngli sezgir keladi. Tunlari bezovta tushlar ko‘radi. Navbatdagi avrashlarning birida ona haqiqatni, haq gapni talab etadi. Uydagi katta kelin ko‘zyoshini zo‘rg‘a tiyib, bor gapni yotig‘i bilan tushuntirishga urinadi. Kesilgan yilni kamaytirib aytadi. Onaizor chidolmaydi. “Ay bolam-ay!” deganicha borar yo‘lidan to‘xtab, dolon o‘rtasida o‘tirib qoladi. Musibat. Ko‘zlaridan duvva-duvva yoshlar quyiladi. Ammo negadir ovozi chiqmaydi. Ingraydi, ko‘zyoshlari selday oqaveradi. Asta o‘ziga kelib: “Joni omonmi? Tani sog‘mi? Xudoyimning kuni ko‘p. Bir kunmas bir kun qaytib keladi!”, deydi. O‘ziga o‘zi dalda bergan kampir shartta o‘rnidan turib, qo‘liga o‘rog‘ini olgancha tomorqa etagiga – yo‘ng‘ichqa otizga qarab yuradi. Gullagan yo‘ng‘ichqani zarda bilan bir chetdan o‘ra boshlaydi. Nima bilandir o‘zini ovutishi kerak, shunda g‘am-tashvish uzoqlashadi. Aks holda...

Oradan ikki yil o‘tib, “millatlar otasi”ning o‘limidan keyin onaga bir yo‘lovchidan xabar keladi: “O‘g‘lingiz Oqto‘bada, ozodlikka chiqdi. Kasalvand, davolanib, keyinroq keladi”. Kasal degani nimasi? Bu xushxabar-ku! Endi ona uyida qanday o‘tirsin? Ming xayolda ichkari kiradi, tashqari chiqadi, yo‘l qaraydi. Hech kim ko‘rinmaydi. Bunday qaraganda, yo‘l ham uncha olis emas. Odam ko‘nglida bir yugursa, yetib boradi. Haqiqatda esa masofa bir necha yuz kilometr. Kichik o‘g‘li kolxoz “zavgar”idan ming iltimos bilan bir yengil avtomashina yollaydi. Enasi bilan birga borib, iloji bo‘lsa, akasini olib qaytish uchun yo‘lga chiqadi. Yo‘l azobi – yomon. Yo‘ldoshlar jimib ketsa, yo‘l unmaydi. Rivoyat aytish mavridi emas, qo‘shiqni uchovidan biri ham bilmaydi. Ayniqsa, yo‘l g‘alting-notekis, o‘ydim-chuqur bo‘lsa, yoshni zeriktirib toliqtiradi, keksani siltab cho‘ktiradi. Yo‘l yarmiga bormay siltovlar bois kampir ancha holdan toyadi. Shunda yonida ketayotgan o‘g‘li: “Ena, yetib borishimiz ancha mushkulga o‘xshaydi. Yo‘llar ham g‘altingli ekan. Ortga qaytganimiz yaxshimikin yo?” deydi. Onasining ko‘ngliga qarab ish tutmoqchi bo‘ladi.

Shunda kampir qat’iy turib: “Voh bolam-a, mashinani to‘ppa-to‘g‘ri Oqto‘baga haydayveringlar. Mabodo yo‘lda o‘lar bo‘lsam, shu o‘g‘lim tomonga qarab uzalib yiqilib o‘layin, roziman. Ortga qaytish yo‘q!” deydi.

Onaning yuragidagi mehr-muhabbat eson-omon o‘g‘lining diydoriga yetkazib, Oqto‘badan yo‘lovchilari bittaga ko‘paygan mashina iziga qaytadi.

**Bahodir NURMUHAMMAD**

YODI HAMISHA YODDA

# QILKO‘PRIKDAN OMON O‘TGANLAR

**Qariyb bir asrlik tarixga ega bo‘lgan ona-xon nashrimiz – “Saodat” jurnali adabiyotga qanchadan-qancha iste’dodli ijodkorlarni, el sevgan shoir-shoiralarni yetishtirib bermagan deysiz? Zulfiyaxonim, Halima Xudoyberdiyeva, Oydin Hojiyeva, Tursunoy Sodiqova, Xosiyat Bobomurodova, Sharifa Salimova, Qutlibeka Rahimboyeva...**



“Saodat” kashf etgan qalam ahlining nigor so‘zlari yillar davomida millionlab qalblardan joy olgani, jurnal esa ming-minglab o‘zbek ayolining ko‘ngildoshiga aylangani rost. Biroq dastlab “Yangi yo‘l”, “Yorqin turmush” deb atalgan sevimli jurnalimizda xizmat qilgan insonlarning hammasi ham saodatli hayot kechira olgan emas. Biz achchiq taqdiri haqida hikoya qilmoqchi bo‘lgan Saodat Shamsiyeva ana shunday ulug‘ mavqega ega jurnalning tashabbuskori va ilk muharrirlaridan biri edi...

Saodat Shamsiyeva 1908-yilda To‘rtko‘l shahrida, nonvoy Polvonjon Allaqulov oilasida tug‘ilgan. Asli Xorazmning Xiva shahri yaqinidagi Qiyot qishlog‘idan ish qidirib, To‘rtko‘l tomonlarga borib qolgan Polvonjon shu yerlik Roziya bibi bilan turmush quradi. U o‘zi savodli bo‘lmasa-da, ilmli kishilarni juda hurmat qilgan. Farzandlarining ham ma’rifatli inson bo‘lib yetishishini istab, yangi maktablarga o‘qishga bergan. Ularning xonadoni rus millatiga mansub oilalar yashaydigan mahallaning qoq o‘rtasida joylashgan edi. Shu bois Saodat bolaligidanoq turli millat vakillari bilan do‘stlashadi.

Polvonjonning vafotidan keyin katta oilaning bor og‘irligi uning xotini va katta o‘g‘lining gardaniga tushadi. Qismat qilichining har sermashidan omon o‘tish girdida yoshgina Saodat ham bolalar kiyim-kechaklari uchun ip yigirar, onasi bilan birga sut sotar edi.

Shu tariqa voyaga yetgan Saodat qo‘qonlik Zokirjon Shamsiyev bilan turmush qurib, matbuotchilar oilasiga kelin bo‘lib tushadi. Yangi zamon ziyolilari qurshovida o‘zi yetti uxlab tushiga kirmagan baxtiyor kunlarga yetishgan kelinchakka o‘zicha she’rlar mashq qilib yuruvchi qaynukasi badiiy kitoblar keltirib berib turadi. Shamsiyevlar oilasi kelinning savodxon ekanligidan juda xursand edi. Oilada ajib bir adabiy muhit paydo bo‘ladi. Ana shu muhit hamda ma’rifiy suhbatlar ta’sirida Saodat ham she’rlar mashq qila boshlaydi, turli mavzularda maqolalar yozadi.

Poligrafiya maktabini tugatgan umr yo‘ldoshining Toshkentdagi Eski Juva mahallasida qurilgan birinchi bosmaxonaga direktor etib tayinlanishi ortidan yosh oila Toshkentga ko‘chib keladi. Adabiyot va she’riyatni sevgan Zokirjon Botu, Cho‘lpon, Elbek, G‘ayratiy, Ziyo Said, Yunus G‘ozi kabi qalamkashlarni tez-tez uyiga mehmonga chaqirar, mushoiralar subhi sodiqqa qadar davom etardi.

Keyinroq Zokirjonning qistovi ostida xotin-qizlar bilim yurtini tugatgan Saodat Narkompross topshirig‘i bilan Xiva xotin-qizlar bilim yurtiga direktor lavozimiga tayinlanadi. Qo‘lida bir yashar bolasi bilan ayolini Xivaga jo‘natgan

...Zokirjon Toshkentda sog‘inch va firoq azobida yashaydi. Zokirjonning bevaqt vafoti shundog‘am hijron azobini chekayotgan ikki yoshni bir-biridan abadiyga judo etadi. Chuqur qayg‘uda qolgan Saodat ilmga beriladi.

U Samarqand pedagogika institutining tashkilotchilik fakultetida o‘qiydi va Samarqand eski shahar komsomol komitetining kotibi etib tayinlanadi. Bir yil o‘tib-o‘tmay O‘zbekiston komsomol komitetining Maorif ministrligidagi vakili bo‘ladi. Bu joyda bilimga chanqoq yoshlar ilm olish uchun turli mamlakatlar va respublikalarga yuborilar edi. O‘sha paytlarda Fayzulla Xo‘jayev tashabbusi bilan yetmishga yaqin o‘zbek yigit-qizlari o‘qituvchi, harf teruvchi, tarbiyachi, suv xo‘jaligi muhandisi kabi turli kasblarni o‘rganish uchun Germaniyaga yuboriladi. Shular qatorida Saodat ham 1930-yilda Moskva shahridagi “Pravda” nomli Butunittifoq jurnalistika institutiga yo‘llanma asosida o‘qishga qabul qilinadi. Markaziy Komitetning siyosiy bo‘limi yo‘llanmasi bilan Andijon rayonidagi “Mo‘l hosil uchun” gazetasida bosh muharrir sifatida ishlay boshlaydi.

Saodat Andijonda uch yil ishlaydi. Sholipoyalarda suv kechib yurib, bezgak kasaliga yo‘liqadi va Toshkentga qaytishga izn so‘raydi. Yosh ayolning salomatligi hisobga olinib, iltimosi qondiriladi.

Shundan so‘ng u “Qizil O‘zbekiston” gazetasining madaniyat bo‘limida ish boshlaydi. Kunlardan birida gazeta tahririyatiga tashrif buyurgan Akmal Ikromov Saodatni O‘zbekiston Markaziy Komitetining bosmaxona ishlari bo‘limiga ishga taklif qiladi. O‘sha paytlarda “Saodat” jurnali “Yangi yo‘l” nomi bilan nashr etilar edi. Saodat bir vaqtning o‘zida ham bo‘limda ishlab, ham mazkur jurnalga muharrirlik qiladi. Shu orada jurnalning nomini o‘zgartirishga qaror qilinadi va juda ko‘p takliflar o‘rtaga tashlanadi. Fayzulla Xo‘jayev jurnalga “Saodat” nomini berishni taklif qiladi. Lekin o‘ta kamtarin va zukko odam bo‘lgan Akmal Ikromov: “Muharriri Saodat bo‘lsa, jurnalning nomini ham uning ismi bilan atasak, odamlar noto‘g‘ri tushunishi mumkin”, deb bu taklifga rozi bo‘lmaydi. A’zam Ayub taklifi ko‘pchilikka ma’qul kelib, jurnalni “Yorqin turmush” deb nomlashga kelishiladi.

Saodat Shamsiyeva Fayzulla Xo‘jayev va Akmal Ikromovni nafaqat o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, gaplashgan, balki shunday ulug‘ arboblarning nazariga tushgan, ularning hurmat-e’tiborini qozongan. Afsuski, o‘zbek ziyolilari boshiga kelgan qora kunlar Saodat Shamsiyevani ham chetlab o‘tmadi. O‘zbekiston KP(b) Markaziy Komitetining 1937-yildagi plenumlaridan birida uni “ayg‘oqchi va josus akasi” Madaminga ma’lumotlar yetkazib turishda ayblashadi.

Yaxshi do‘st yomon kuningda bilinadi. Saodatga sadoqatli do‘stlar biroz muddat yashirinishni maslahat berishadi. U bolalarini olib, singlisi bilan hech kim tanimaydigan Orjonikidze rayonidagi ovloq bir qishloqqa borib yashaydi. Qishning




qattiq kelganiga qaramay, singlisi bilan yarim beligacha loyga botib ishlab, dalaga mahalliy o‘g‘it chiqaradi. Bir buxanka non topish uchun qorli, qirovli kunlarda ham mehnatdan bosh ko‘tarmaydi. Og‘ir turmush sharoiti tufayli eski bezgak kasali qaytalangach, yana Toshkentga ko‘chib kelishga majbur bo‘ladi. Biroz salomatligi yaxshilangach, “Tashkentprom” korxonasida




shisha idishlarga siyoh quyuvchi, non zavodida yuk tashuvchi bo‘lib ishlaydi. Urush yillarini og‘ir mehnatda o‘tkazadi.

Urush tugagach, arab tili bo‘yicha bilimga ega bo‘lgan Saodat Sharqshunoslik institutiga ish so‘rab boradi. Lekin u yerda har kuni kishi boshiga beriladigan 300 gramm nonni ikki bolasi, singlisi va o‘ziga yetkizolmay qiynaladi. Keyinchalik Saodat Shamsiyeva O‘zbekiston radiosi, Parkent rayoni gazetasi, Angren ko‘mir koni gazetalarida faoliyat olib boradi. Bir joyda uzoq vaqt jonini berib ishlashgani uchun amnistiya berilgan bo‘lsa-da, biroq uning to‘liq oqlanishi haqida gap bo‘lishi mumkin emas edi. 1955-yilda Saodat haqiqat izlab Moskvaga boradi. O‘shanda u qatag‘on qilinganlar ro‘yxatini ko‘radi. 1937-yilda partiya safidan o‘chirilib, o‘zining otuvga hukm qilinganini o‘qib dahshatga tushadi. Uning shunday ayovsiz qatag‘on tig‘idan qutulishi ajdaho komidan omon chiqish bilan barobar edi.

Nihoyat, 1956-yilda ko‘plab qatag‘on qurbonlari qatori Saodat Shamsiyeva ham to‘liq oqlanadi va qadrdon jurnalida muharrir o‘rinbosari lavozimida ish boshlaydi. O‘sha kunlar haqida u shunday yozadi:

“1956-yili Toshkentga kelib, O‘zbekiston xotin-qizlari jurnalida uch-to‘rt yil ishlab pensiyaga chiqdim. Sog‘ligim zaif bo‘lsa ham endi jamoat ishlarida qatnashib yurdim. “Respublikada xizmat ko‘rsatgan jurnalist” degan unvonim bor edi. Endi yoshim ellikka yaqinlashib qoldi. Uyalaman. O‘n yetti yillik repressiya tufayli hayotimdan biron durustroq narsa qoldirolmadim. Yozish uchun yaxshi kayfiyat, ilhom, toza havo, tengdosh qalamkashlar bo‘lishi kerak ekan. Yoshligimning o‘n yetti yili yig‘lab o‘tdi. “Xalq dushmani” degan so‘z yurak-bag‘rimdan o‘tardi, yuzim qaro edi”.

U nafaqaga chiqqanidan keyin ham ijodini davom ettiradi. Tarjima bilan shug‘ullanadi, televideniye va radio uchun materiallar tayyorlash, respublika gazetalariga maqolalar yozish bilan mashg‘ul bo‘ladi. O‘zbek matbuotiga xizmat qilishdan to‘xtamaydi.

“Saodat”ning Saodat ayasi 91 yil umr ko‘rdi. U mash’um qatag‘onning qahrini o‘zining qat’iy irodasi va matonati bilan yengib o‘tishga muvaffaq bo‘ldi.

**Muhayyo RUSTAM qizi**

TARMOQLARDA NIMA GAP?



## Avlodlarga o‘tib kelayotgan qarzlar

**Bir ukamiz bor. Otasi, amakilari qassob. Yaqinda savdo bilan bog‘liq qiziqarli voqealarni aytib berdi.**

– Hamma qassoblar singari otamning ham qarz daftari bor. Ancha qalin, ancha qadimiy. Qishloqqa borganda varaqlab ko‘raman. O‘n yillab uzilmagan qarzlar ham borligidan hayratlanaman. Yaqinda aytib berishdi – yigit uylanayotganda oila qarzga go‘sht olgan, qarz uzilmagan. Endi o‘sha yangi oilada tug‘ilgan nevaraning sunnat to‘yi uchun daftarga yozdirib go‘sht olishmoqchi bo‘lishibdi. Lekin bu ham rekord emas: o‘zi uylanganda olgan go‘shti uchun qarzini to‘liq uzmagan bir kishi o‘g‘lini uylantirganda yana qarzga go‘sht so‘rab kelibdi... Alam qilarlisi, odamlarni ham juda nochor, ilojsiz deb bo‘lmaydi. Qarsillatib uylar quryapti, to‘ylar qilyapti, moshinalar minyapti.

Ukamizning aytishicha, daftar ochilib, qarzdorlik ko‘rsatilsa, yana bir tortishuv chiqarkan. Qarzni bugungi kilo narxi hisobi bilan uzish so‘ralsa, “men o‘sha payt uch kilo go‘shtga 30 ming qarz bo‘lganman, shu pulni beraman”, deb janjal qilisharkan.

Qiziq, bu holatda kim haq?

**Abror ZOHIDOV,**
**Facebook**

TILBILIM

# OLQINDI

**Kir yuvilaverib kichrayib qolgan kirsovun yoki yeyilib ketgan qumqayroqqa nisbatan “olqindi” deymiz. Shuningdek, “olqindiday” deganda ko‘chma ma’noda kichik narsa tushuniladi. Kir yuvish vositalari, hayot tarzimiz o‘zgargan sari bu so‘z ham, agar yangi ma’no tovlanishlari bilan iste’molga qaytarilmasa, hademay mutloq unut bo‘lishi mumkin.**



Qadimda esa olqindi va unga o‘zakdosh so‘zlar ancha faol bo‘lgan. Xususan, buni Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida keltirilgan misollarda ham ko‘rish mumkin: “alqïndï – tamom bo‘ldi, tugadi. Alqïndï nәң – narsa butunlay tamom bo‘ldi, tugadi. Әr alqïndï – odam o‘ldi, tugadi, yo‘q bo‘ldi (alqïnur, alqïnmaq)”. Shuningdek, “Devon”da bu so‘zning fe’l shakli “alqtï” (boshqa bir o‘rinda “alqdï” shunday izohlangan: “alqtï: ol tavarïn alqtï – u molini yo‘q qilib yubordi”.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida ham bu so‘zga bir necha o‘rinlarda duch kelamiz:

*“Nechə tersə dunya tygər alqinur”.*

Ma’nosi: “Qancha mol-dunyo yig‘magin, termagin, u tugaydi, olqinadi”.

“Alqïndï” – “tugadi, tugayotgan” degani bo‘lsa, uning ziddi, bo‘lishsizlik shakli: “alqinchsiz” ham “bitmas, tuganmas” ma’nosida qadimda keng iste’molda bo‘lgan. Misol: alqïnčsïz tükätinčsïz – bitmas-tuganmas. Alqïnču esa – o‘layotgan, o‘tkinchi demak.

Bu so‘z etimologiyasi haqida lug‘atlarda ma’lumot mavjud emas. Bizningcha, “alq-” o‘zagi qadimgi turkiydagi “tugamoq, o‘lmoq, o‘ldirmoq...” kabi ko‘plab ma’nolarga ega bo‘lgan “әl” arxetipiga borib taqaladi. Qadimgi “әl” esa hozirgi tilimizdagi “o‘l”, ya’ni barcha turkiy tillardagi “o‘lmoq”, “o‘lim” so‘zlari negizi. “Turkiy tillarning etimologik lug‘ati”da keltirilishicha, taniqli olim G.Vamberi “әl” arxetipining “o‘lmoq” emas, “o‘ldirmoq” ma’nosi qadimda birlamchi bo‘lgan, degan fikr bildirgan. Bunga misol qilib olim major (hungar) tilida “әl”ning “o‘ldirmoq” ma’nosi saqlanganligini keltiradi. Chunki major tiliga bu so‘z qadim zamonlarda o‘zlashgan.

“Әl”ning “o‘ldirmoq” ma’nosi nafaqat major, balki mo‘g‘ul tillarida ham saqlanganligi G.Vamberi fikrini quvvatlaydi. Xususan, “Mo‘g‘ullarning sirli tarixi” yodgorligi 157 paragrafida “o‘ldirmoq” ma’nosida qadimgi mo‘g‘ul tilidagi “alaju” so‘zi ishlatilgan. Bu borada Bobur ham “Boburnoma”da qiziq ma’lumot keltiradi. Ma’lumki, Boburning kichik tog‘asi Ahmadxonning laqabi Olachaxon bo‘lgan. Bobur buni shunday tushuntiradi: *“Olachaning vajhi tasmiyasi muni derlarkim, qalmoq va mo‘g‘ul tili bila o‘lturguchini “olachi” derlar. Qalmoqni necha qatla bosib, qalin kishisin qirg‘on uchun “olachi” de-de kasrati isti’mol bila Olacha bo‘lubtur”.*

Shunday qilib, “alq-” fe’li, bizningcha, xuddi “tol+iq+moq”, “yo‘l+iq+moq” so‘zlari kabi, mazkur “әl” o‘zagiga “-q” fe’l yasovchi qo‘shimchasini qo‘shish yo‘li bilan dastlab “al+iq+moq” shaklida yasalgan. Biror fe’lga mazkur “-q” (“-iq”) qo‘shimchasi qo‘shilganda fe’l o‘zagidan anglashilgan ma’no biroz yumshaydi, qiyoslang: “oyog‘im toldi” – “oyog‘im toliqdi”. Shu kabi “olqimoq”, “olqindi” so‘zlari ham hali butunlay tugamagan, ammo tugayotgan ma’nosida qo‘llanilgan. Deylik, qadimgi turkiyda o‘lim soati, kishi o‘layotgan, so‘nggi daqiqalarini yashayotgan payt – alqïnču öd iborasi bilan ifodalangan. Hozir ham shu bois tugayotgan, ammo butunlay tugab ulgurmagan kirsovun, qayroq kabilarni olqindi deymiz.

**Abduvohid HAYIT**

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

**Bosh muharrir:**
Iqbol Mirzo

**Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:**
Humoyun Akbarov

**Mas’ul kotib:**
Shuhrat Azizov

**Navbatchi muharrir:**
Muhayyo Pirnafasova

**Sahifalovchilar:**
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

**Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.**

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 5 867
Lotin yozuvidagi adadi – 11 914
Media kuzatuvchilar – 19 166
Buyurtma: G – 940.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



**Manzilimiz:**
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
**Telefonlar:**
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

**“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.**
**Bosmaxona manzili:**
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 19:30
Sotuvda narxi erkin.

jadid-media.uz